

**O'ZBEKSITON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI



**SHE'R POETIKASI
fanidan tayyorlangan**

MA'RUZAIAR MATNI

- | | | |
|--------------------|---------|--|
| Bilim sohasi: | 100000 | – Gumanitar soha |
| Ta'lim sohasi: | 120000 | – Gumanitar fanlar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 5120100 | – Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili) |

Guliston – 2020

H.MIRHAYDAROV. SHE'R POETIKASI FANI BO'YICHA MA'RUZA MATNI. – Guliston, 2020 y.

Mazkur ma'ruzalar matni 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 1-martdagi 107-sonli “Yangi o‘quv-uslubiy majmualarni tayyorlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmani tavsiya etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i asosida tayyorlangan.

Istiqlol davriga kelib, badiiy adabiyotni, jumladan, she’riyatni o‘z aslicha, ya’ni asrlardan beri to‘planib kelingan tajriba asosida inson ruhiy olamining badiiy tarixi sifatida o‘rganish va talqin qilish imkoniyati tug‘ildi. 70 yil mobaynida sharqona ilmi uchlikni chuqur o‘rganish chandon susayib ketgan edi. Ayniqsa, ilmi badoe’siz she’riyatning na balog‘atti (so‘z), na fasohati (sintaksis) badiiy idrok qilinadi.

«She’r poetikasi» kursi she’r ta’limi bo‘yicha bugungi kun ehtiyoj va talabiga imkon qadar amaliy javob bo‘lishi mumkin..

quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti O‘quv uslubiy kengashi tomonidan (1-bayonnomma __ avgustdagi 2020-yil) ko‘rib chiqilgan namunaviy dastur asosida shakllantirilgan va o‘quv jarayonida qo‘llashga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

**O.Fayzullayeva,
fil.fan. nomzodi, dotsent**
**Q.Ko‘bayev,
fil.fan.nom.dots.**

Mundarija:

Kirish.....	3
Nazariy materiallar (ma’ruzalar kursi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar.....	5
Amaliy mashg‘ulotlari.....	7
Mustaqil ta’lim bo‘yicha materiallar.....	12
Glossariy.....	140
Test savollari.....	144

Ilovalar:

Fan dasturi.....	150
Ishchi fan dasturi.....	151
She’r poetikasi fani sillabusi.....	158
Xorijiy o‘quv materiallari (elektron shaklda).....	162
Taqdimotlar va multimedya vositalari (elektron shaklda).....	163
Qo‘shimcha didaktik materiallar.....	164

KIRISH

Mustaqillik bergan milliy g‘oya mafkura va milliy ma’naviyat badiiy adabiyotning o‘qitilishini tubdan o‘zgartirishni taqozo qilmoqda. Istiqlolgacha badiiy adabiyotni g‘oyaviy-ijtimoiy yo‘sinda o‘rganish hokimlik qildi. Endilikda badiiy adabiyotni, jumldan, she’riyatni aslicha, ya’ni asrlardan beri hosil bo‘lgan tajribalar asosida inson ruhiy olamining badiiy-nazmiy tarixi sifatida o‘rganish va talqin qilish imkoniyatiga keng yo‘l ochildi. She’riyatni o‘rganishda sharqona ilmiy uchlikning ahamiyati mutlaqo susayib ketgan edi. Hatto she’r ta’limi bo‘yicha biror yo‘riqnomasi, o‘quv dasturi yaratilmadi. Qolaversa, ta’lim rejasidan o‘rin olmadi. Vaholanki, ilmiy uchlik – ilmi sanoe’, ilmi aruz, ilmi qofiyasiz she’r ta’limi haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Ayniqsa, ilmi badoesiz nazmiyotning na badiiy kalomi, na poetik sintaksisi badiiy idrok qilinadi.

“She’r poetikasi” kursi she’rni poetik jihatdan so‘z san’ati hodisasi sifatida tahlil va talqin qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

O‘n asrlik o‘zbek mumtoz va asrga teng zamonaviy o‘zbek she’riyati adabiyot tarixi kursida imkon qadar o‘tiladi, ammo u nazariy va amaliy jihatdan mustaqil kurs sifatida o‘rganilmaydi. Mazkur kurs ana shu maqsadni amalgalash oshirish borasidagi dastlabki qadamdir.

“Adabiyotshunoslik assoslari” kursida she’rshunoslikka oid olingan nazariy bilim “She’r poetikasi” kursida yanada chuqurlashtiriladi. Yangi mavzu va muammolar qo‘shilib poetika talabi nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Xususan, talabalar she’r poetikasi va she’riy matnni nazariy, amaliy jihatdan o‘rganish hamda talqin qilish malakasiga ega bo‘ladilar.

Badiiy adabiyotni nazariy idrok qilishning 3 asosiy vazifasi: adabiy-badiiy ijod asoslari, adabiy jarayon qonuniyatları, badiiy asar tahlili tamoyillari mavjudki, mazkur kurs 3 - siga mansubdir.

Metodik usullar badiiy asarning tabiatidan kelib chiqadi, “...har bir asar uning tabiatiga muvofiq o‘qilishi va tahlil qilinishi lozim” (M.A.Ribnikova). Ana shu fikrdan kelib chiqib badiiy ifoda shakli she’r ham o‘z tabiatiga ko‘ra o‘rganiladi va tahlil qilinadi.

Qo‘lingizdagagi o‘quv-uslubiy majmua mavjud dastur asosida tayyorlanib, zamonaviy-pedagogik texnologiyalar tizimiga suyangan holda unga ishchi dastur, reyting ishlanmasi, baholash mezoni, dars va identiv o‘quv maqsadlari, mavzu bo‘yicha tayanch tushuncha va iboralar, o‘rganilishi zarur bo‘lgan muammolar, nazorat savollari, yakuniy xulosalar, talabalar mustaqil o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan topshiriqlar, amaliy va semenar mashg‘ulotlarini bajarish tartiblari (metodik ko‘rsatma) hamda har bir mavzu bo‘yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar, nihoyat, birlamchi va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

Manzil: 707012. Guliston shahar

4-mavze, universitet

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи

2. Kursda o‘tiladigan mavzular va ular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

№	Fanning bo‘limi va mavzusi, ma’ruza mazmuni	Jami	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulotlar	Mustaqil ta’lim
1.	Kirish. Poetika tarihi va tasnifi	6	2	2	2
2.	Poetik nutq	4		2	2
3.	She’r poetikasi tarixi	6	2	2	2
4.	Ritm nazariyasi	2		2	
5.	Ritm nazariyasi, ritm va uning turlari	6	2	2	2
6.	Ko‘chimlar poetikasi	2		2	
7.	Sistaksis poetikasi	4		2	2
8.	Poetik ko‘chimlar va poetik sintoksis	4	2	2	
9.	Poetik asar tahlili mezonlari	4		2	2
10.	Poetik asar badiyati	4		2	2
11.	G‘azal poetikasi	2		2	
12.	Ruboiy poetikasi	4		2	2
13.	Muxammad poetikasi	2		2	
14.	Barmoq she’r tizimi	4		2	2
15.	Barmoq vazni qofiyalar	4		2	2
16.	Barmoq vazni shahobchalari: erkin vazn, sabart she’r	2		2	
17.	Navoiyning qorako‘zim tahlili	2		2	
18.	Bobur g‘azallari poetikasi (badiiyati)	2		2	
19.	Bobur g‘azaliyoti tarhi	4		2	2
20.	Bobur g‘azallari lirik qahramoni	2		2	
21.	Barmoq vazni turlari	2		2	
22.	Cho‘lponning «Go‘zal» she’ri poetikasi	4		2	2
23.	Oybekning “O‘zbekiston” she’ri tahlili	4		2	2
24.	Oybekning “Namatak” she’ri tahlili	2		2	
25.	Hamid Olimjonning “O‘zbekiston” she’ri tahlili	4		2	2
26.	Hamid Olimjonning “Baxtlar vodiysi” she’ri tahlili	2		2	
27.	G‘ofur G‘ulomning “Sen etim emassan” she’ri tahlili	4		2	2
28.	G‘ofur G‘ulomning “Sog‘inish” she’ri tahlili	2		2	
29.	G‘ofur G‘ulomning “Assalom” she’ri tahlili	2		2	
30.	Erkin Vohidovning “O‘zbegim” she’ri tahlili	4		2	2
31.	Erkin Vohidovning “Inson” she’ri tahlili	2		2	
32.	Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she’ri tahlili	4		2	2
33.	Abdulla Oripovning “Uchunchi odam” she’ri tahlili	4		2	2
34.	Abdulla Oripovning “Nomalam odam” she’ri tahlili	2		2	
35.	Abdulla Oripovning “Ayol” she’ri tahlili	4		2	2
36.	Muhammad Yusuf “Ulug‘imsan vatanim” she’ri tahlili	4		2	2
37.	Muhammad Yusuf “Samarkand” she’ri tahlili	2		2	
38.	Halima Hudoyberdiyeva she’rlaridan namuna talil qilish	2		2	
	Jami:	112	8	104	40

MA’RUZA MATNLARI

1-mavzu. She’r poetikasi kursining maqsad va vazifalari.

Asosiy savollar:

- 1.1. Kursning predmeti.
- 1.2. Kursning baho yuritadigan mundarijasi, maqsad va vazifasi.
- 1.3. Kursning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Kursning predmeti, she’r poetikasi, kursning mundarijasi, maqsadi, vazifasi, boshqa fanlar bilan aloqasi.

1-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Talabalarga “She’r poetikasi” maxsus kursining o‘rganish predmeti va mundarijasi haqida tushuncha hosil qildiriladi.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 1.1. Kursning predmetini tavsiflaydi.
- 1.2. Kursning maqsadini tushunadi.
- 1.3. Kursning vazifasini biladi.

1.1 - asosiy savolining bayoni.

Filolog mutaxassislarni tayyorlash - o‘zbek adabiyotining bugungi holatini, ilmiy-nazariy va amaliy muammolarini tavsiflab beruvchi maxsus fanning mazmun-mundarijasi bilan uzviy bog‘liq. Ayni vaqtda “She’r poetikasi” kursining maqsad va vazifasi istiqlol davri o‘zbek adabiyoti dasturi bilan muvofiqlashtirilgandir.

Kursning predmeti she’rni go‘zallik olami - sanoe nafisa nuqtai nazaridan o‘rganishdir.

Kursning maqsadi nazmiy asarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan so‘z san’ati hodisasi sifatida shakllantiruvchi va uyushtiruvchi poetik vosita hamda unsurlarni o‘rganishdan iborat.

Nazmiy mazmun bilan nazmiy-musiqiy ohangning uyg‘unligini ta’minlovchi nazmiy nutq, ritm, balog‘at va poetik sintaksis, umuman, she’r poetikasi, she’r san’atlari va boshqa poetik usul hamda hodisalar tavsiflanadi va talqin qilinadi. Bu kursning vazifasini tashkil etadi.

Mafkuramizning bosh g‘oyasi-ozod va obod vatan hamda farovon hayot barpo etishdir. Bunday hayotni barkamol avlod va uning sog‘lom avlodi quradi. Barkamollik jismoniy va ma’naviy olamdan iborat. Ma’naviy olamning shakllanishi, takomilida san’at turlaridan biri-adabiyotning o‘rni beqiyos. Adabiyotni tushunmoq, idrok qilmoq, qalbga tuymoq uchun uning qonun-qoidalaridan ham xabardor bo‘lmoq extiyoji o‘z-o‘zidan kelib chiqadi. Shu jumladan, adabiyotning uzviy qismini tashkil qiladigan she’riyat sir-u asrorlaridan ogoh bo‘lish uchun “She’r poetikasi” kursi qo‘llanmalik vazifasini o‘taydi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.“She’r poetikasi” kursi predmetini tavsiflang.
2. Kursning maqsad va vazifasini izohlang.

1.2-asosiy savol bo‘yicha darsning asosiy maqsadi:

Talabalarga kursning mundarijasi va u nimadan bahs yuritishi maqsad va vazifasi haqida tushuncha berish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

1. “She’r poetikasi” bilan “She’rshunoslik” kursining mundarijasini farqlay oladi.
2. “She’r poetikasi” kursi nimalardan bahs yuritishi va maqsad vazifasini bilib oladi.
3. Kursning boshqa fanlar bilan aloqasini tushunadi.

1.2-asosiy savolining bayoni:

Kurs she’r poetikasi tarixining ibtido davridan boshlab bahs yuritadi. Ilk davrida she’rning boshqa ifoda shakllari va san’at turlaridan farqi, janr ko‘rinishlarining shakllanishi (marsiya, to‘rtlik, munozara) ayrim uslubiy-tavsifiy vositalar(o‘xshatish, sifatlash, talmeh) ning paydo bo‘lishi borasida bahs ketadi. Shuningdek, nutq ko‘rinishlari og‘zaki, yozma, badiiy, rasmiy, publitsisitik, ilmiy nutq tasnifi va tavsifi haqida fikr boradi.

Kursni olib borishda poetik ritmga alohida e’tibor beriladi. Chunki, o‘zbek she’riyati tarixida ritmnинг rang-barang navlari paydo bo‘ldi. Albatta, ular she’riy mazmun bilan bog‘liq. “She’r poetikasi” kursining asosiy mundarijasini balog‘at (badiiy kalom), poetik sintaksis (sintaksis), tasviriy-ifodaviy vositalar (stilistika) tashkil qiladi. Bundan tashqari, she’r badiiyati, uni tahlil qilish mezonlari, lirik tarh (kompozitsiya), kichik lirik janrlar va g‘azal kompozitsiyasi hamda poetikasi borasida ma’lumot beriladi.

“She’r poetikasi” kursiga she’r vazni, qofiya va band tuzilishi mazkur kursning mundarijasiga kiritilmadi, chunki, she’r tizimi “Adabiyot nazariyasi” va “She’rshunoslik” maxsus kursida o‘tilishi nazarda tutiladi. Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, “Aruz sharif fan”, u alohida kurs sifatida o‘tilishni talab qiladi. Qisqasi, kurs she’r poetikasi va uni nazmiy tahlil qilish sir-u sinoati haqida batafsil nazariy tushuncha berishga mo‘ljallangan.

Muhokama uchun savollar:

1. “She’rshunoslik” kursining predmetini aytинг.
2. “She’r poetikasi” kursining mundarijasini izohlang.

1.3-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Talabalarga “She’r poetikasi” kursining turdosh fanlar bilan aloqadorligini singdirish.

Identiv o‘quv maqsadi”

1. Kursning “She’rshunoslik” kursi bilan aloqadorligini tushunadi.
2. Kursning “Adabiyotshunoslik asoslari” fani bilan mushtarak va nomushtarakligini aniqlaydi.
3. Kursning “Sintaksis” va “Stilistika” fanlari bilan aloqasini ajrata oladi.

1.3-asosiy savolning bayoni.

Har qanday fan o‘rganish predmetini faqat o‘z imkoniyati darajasida echishga qodir emas. U boshqa fanlar bilan aloqasi va ko‘magi asosida o‘z maqsadiga erishadi. Jumladan, “She’r poetikasi” kursi “Aadbiiyotshunoslik asoslari”, “Sintaksis”, “Stilistika”, “Badiiy asar matni tahlili”, “Ifodali o‘qish” fanlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

“Adabiyotshunoslik asoslari” ham “She’r poetikasi” va tuzilishi bilan bog‘liq. Ammo unda bu masala keng tizimli o‘rganilmaydi. Bu vazifa uning o‘rganish zimmasiga kirmaydi ham.

Ayniqsa, she’r poetikasini tizimli o‘rganish, uni tahlil qilish andozalari shu vaqtgacha biror darslik, qo‘llanmada berilmagan edi. Keyingi yillarda yaratilgan H.Umurovning “Adabiyot nazariyasi” (T-2002), D.Quronovning “Adabiyotshunoslikka kirish” darsliklarida badiiy asar va she’r tahliliga biroz o‘rin ajratilgan. “She’r poetikasi” kursi esa she’r badiiyati va tahlil qilish shakli hamda yo‘qriqlarini o‘rgatishni o‘z zimmasiga oladi. Masalan, “Adabiyotshunoslik asoslari” da G.G’ulomning “Sen etim emassan” she’ridagi nazariy fikridan misol keltirilsa, she’r poetikasida mazkur she’rni qaysi tahlil usulida o‘rganish, uning biografiyasi, mavzusi, g‘oyaviy-badiiy, vazn xususiyati, estetik ta’sirchanligi, adabiyotshunoslik va adabiy tanqidda baholanishi, olimlaning fikrlari, qisqasi, uning estetik olami chuqur talqin qilinadi. To‘g‘ri, xuddi shu masala adabiyot tarixida ham o‘rganiladi. Unda she’rning badiiy tahlili, qolaversa, o‘zbek she’riyati tarixida tutgan o‘rniga e’tibor qaratiladi.

Kursning poetik sintaksis masalalarini “Sintaksis” va “Stilistika” fanlarisiz idrok qilish juda qiyin. “Sintaksis” milliy tilning grammatik qurilishi haqida, “Stilistika” esa so‘z va gaplardagi qo‘srimcha ma’no anglatish xususiyatlari borasida so‘z yuritadi:

**To‘xtamadi qonli jang,
Bo‘ldi devning holi tang.**

(Hamid Olimjon)

Ushbu baytdagi gaplar grammatik qoidaga ko‘ra emas, balki, poetik sintaksis talabiga asosan tuzilgan. Grammatikaga ko‘ra, “Qonli jang to‘xtamadi, devning holi tang bo‘ldi” tarzida bo‘lishi kerak.

Bu holatda gap bo‘laklari qoidaga ko‘ra, baytda esa ega va kesim o‘rin almashib, ya’ni, kesim gap boshida kelgan. Bu poetik sintaksisga xos. She’rda gap poetik ritm va poetik sintaksisga bo‘ysunishi haqida fikrlanadi. Baribir poetik sintaksisni

o‘rganishda “Sintaksis” fanining qoidalari asqotadi. Shuningdek, kurs “Badiiy asar matni tahlili” kursi bilan bevosita aloqadordir. “Badiiy asar matni tahlili” kursida ham o‘rni bilan tasviriy-ifodaviy vositalarga daxl qilinadi. Tasviriy-ifodaviy vositalar esa “She’r poetikasi” kursining asosiy mavzularidan biri hisoblanadi.

Muhokama uchun savollar:

1. “She’r poetikasi” kursining “Adabiyotshunoslik asoslari” fani bilan aloqasini aytib bering.
2. Kursning “Sintaksis” va “Stilistika” fani bilan bog‘liqlik tomoni nimalarda ko‘rinadi?
3. G‘afur G‘ulomning “Sen etim emassan” she’rining adabiyot tarixi va “She’r poetikasi” kursida o‘rganishning farqini izohlang.

Adabiyotlar: 2(9-26), 11 (13-20).

2-mavzu: ShE’R POETIKASI TARIXI

Asosiy savollar:

- 2.1. She’r poetikasi tarixi va uning bosqichlari.
- 2.2. She’r poetikasi tarixining dastlabki va o‘rta asrlar davri.
- 2.3. XX asr she’r poetikasi masalasi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

“She’r” atamasi, she’r poetikasi bosqichlari, chanda, tashbehning hayotiyligi, she’rni bir butun holda o‘rganish, “Poetika” asari, tanqid atamasi (naqd), qonunlashgan poetika, qorishiq (sintez) poetika, “ayb” atamasi, poetikadagi sotsiologik oqim.

Mavzuga oid muammolar:

Poetika tarixini tasniflash va ularga berilgan aniqlama haqida sizning munosabatingiz?

Sharq poetikasidagi naqd (tanqid) masalasini siz qanday tushunasiz?

2.1-asosiy savol bo‘yicha savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Belinskiyning she’mi o‘rganish borasidagi qarashi bo‘yicha poetika tarixi davrlari tasniflanadi. To‘rt bosqichning har biri bo‘yicha alohida izohlar beriladi. Mustaqillik davriga kelib, she’r poetikasi asliyatiga ko‘chganligi ilmiy kuzatiladi va bular talablarga singdiriladi.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 1.3.1. Poetika tarixini tasniflaydi va bosqichlarini aytib beradi.
- 1.3.2. Poetika tarixida naqdning (tanqid) mavqeyini tushunadi.
- 1.3.3. Poetika tarixidagi “ayb” tushunchasini ifodalagan ma’noni aniq biladi.

2.1-asosiy savolning bayoni(naqli):

“She’r,- deydi Qays Roziy “Al-Mo‘jam” asarida, bilim demakdir”. “Istilohiy ma’noda ma’noviy va mazmunning murattabi (qo‘silishi), takrorlanuvchi

unsurlarning bir-biriga mosligidir” (Roziy). Buyuk Arastu she’rning tarixga nisbatan mushtarak va nomushtarak tomonlarini aytib: she’r tarixga nisbatan falsafiy, u ko‘proq so‘z bilan fikrlaydi, tarix esa alohida narsalar borasida so‘zlaydi, degan edi. She’r borasida Qur’oni Karimda ham ajoyib fikrlar keltirilgan. Unda: bilaks shoirlarning e’tiroficha ham she’rning eng shirini eng yolg‘onidir... “She’riyat esa o‘z ko‘tarinkiligin, mubolag‘alari ila (ya’ni o‘z tabiatи bilan) to‘la ma’nodagi rostlikni ko‘rsata olmaydi”, deyiladi.

She’r - san’atning gultoji. U musiqa san’ati bilan nihoyatda chambarchas aloqadadir. Hatto u tasavvufning samo‘ tariqati bilan ham nihoyatda uzviy bog‘liqidir.

So‘fiylar she’r o‘qish va musiqa tinglash orqali haqiqatga erishmoqchi bo‘lganlar. Maxsus xona va xonaqohlarda so‘fiylar she’r o‘qib, musiqa eshitib, o‘ta ta’sirlanib, hatto jazavaga tushib, xudoni yodga keltiradilar. Samoga moyillik Mir Alisher Navoiyda ham bor edi. Qisqasi, Sharqda she’r va she’rxonlik nihoyatda muqaddas bilingan. Boringki, Iqbol “shoir ham vorisi payg‘ambarist” deb bejizga aytmagan.

Forslarda inson tug‘ilgandan to vafoti, mehmon qabul qilishdan tortib to kuzatib qo‘yishgacha she’r bilan so‘zlar ekanlar. Demak, she’r-insonning hayot yo‘ldoshi. Dardu iztiroblarini, ko‘tarinki kayfiyatlarini ifoda etuvchi muhim vositadir.

She’rni o‘rganish, tahlil qilish uzoq tarixga borib taqaladi. Uning o‘rganilish bosqichlari hali fanda to‘liq aniqlanganicha yo‘q. Belinskiy she’rni o‘rganish bo‘yicha fikr bildirib, uni 3bosqichga bo‘lgan edi: 1-bosqich alohida she’rni o‘rganish, 2-bosqich she’rning ayrim qismlarini tahlil qilish, 3 -“uni (she’r) bir butun holda baholash”ni talab qilish. Belinskiy fikridan kelib chiqib, o‘zbek she’r poetikasini 4 bosqichga bo‘lish mumkin.

Birinchi bosqich - she’r poetikasining ilk davri, bu davrda timsol bilan timsollanuvchi, o‘xshagan narsa bilan o‘xshatilgan narsa aniq, mantiqan bog‘langan holda o‘rganilgan.

Ikkinci davr XV asrning ikkinchi yarmi, ya’ni ilmi sanoe’ to‘liq shakllangan va kanon darajaga erishgan davr.

Uchinchisi - she’rni ijtimoiy-sotsiologik jihatdan tahlil qilish davri. Bu davrda vazn, mumtoz she’r shakli va timsollardan foydalanish, yangi poetik obraz hamda lirk qahramon baxsli o‘rganildi. Tahlilda g‘oyaviy-ijtimoiylik birinchi darajaga ko‘chib, she’r ahamiyatini noto‘g‘ri talqin qilish hukm surdi.

Eng avvalo, aruz vaznining o‘zbek tiliga mos yoki mos emasligi, mumtoz she’riyat shakli va timsollaridan foydalanish, yangi poetik obraz va lirk qahramon masalasi dolzarplashdi.

To‘rtinchisida-she’r aslicha, ya’ni san’at hodisasi sifatida o‘rganila boshlandi. Yanada to‘g‘rirog‘i, she’rni badiiy-estetik jihatdan to‘liq tahlil jarayoni kechdi. Botiniy va zohiriy tahlil amalga oshdi.

Poetikaning qadimiy davri haqida gap ketsa, islomgacha bo‘lgan buddaviy va moniylik she’riyatga to‘xtalish lozim bo‘ladi. Bu davrda adabiyotshunoslik, ya’ni poetikaning unsurlari bo‘lganiga hech qanday shubha yo‘q. Chunki mavjud she’r namunalari shoirlar tomonidan yozilgan. Shundan shoir Aprinchur tiginning

nomi saqlanib xolos. O'sha davrda yozilgan she'rlar vazn, badiiy tasvir vositalari jihatidan o'ziga xos va mukammal, yagona qoidaga asoslangani bilinib turadi. Shu holatning o'zi o'sha davr poetikasining u yoki bu qoidalari mavjud bo'lgan. Moniy va buddaviy she'riyatini o'rgandishda keying davr poetikasida qo'llanilgan atama va qoidalalar tatbiq etiladi. Bu tajriba jahon adabiyotshunosligida qabul qilingan. Masalan, akademik B.S.Lixachev qadimgi rus adabiyotini tavsiflashda keyingi davrda qo'llanilib kelinayotgan atamalardan foydalangan. Bu tajriba turkiy xalqlar she'riyatining ibtido davrini nazariy asoslashda to'liq qo'llanilmoqda.

Qadimgi turkiy poeziya poetikasida ikki muhim hodisani maxsus qayd qilish lozim. Birinchidan, qadimiylar she'riyatda xalq og'zaki ijodidan oziqlangan holda mustaqil she'riy janrlar shakllangan. To'rtlik va marsiya og'zaki ijodga xos bo'lsada, u qadimgi yozma obidalardan o'rinni olgan hamda yozma adabiyotning mustaqil she'riy janriga aylangan. To'rtlik va marsiyada vazn, qofiya rang-barangligi saqlangan: a-a-a-a; a-a-a-b; a-b-b-b; a-b-a-a; a-b-a-v; a-b-v-a kabilar.

Qofiyalanish tartibiga e'tibor berilsa, unda murabba' va ruboiy, ruboiyi tarona janrlarining qofiya tizimiga ham duch kelinadi. Bu qadimiylar she'riyatining zamini bor, degan xulosaga olib keladi.

Marsiya janri barmoqda bitilib, qofiyaning murabba' tartibida bo'lgan.

Qadimiylar she'riyatning tasviriy vositalari o'sha davrning mafkurasi ya'ni, dunyoqarashi - moniy va budda diniy tushunchalari bilan bog'liq bo'lganligini qayd etish zarur. Sifatlash va tashbeh eng serob qo'llaniladigan tasviriy vositalar sirasiga kiradi. Sifatlashning qo'llanilishi qadimgi she'rlarning badiiyat sari qo'yilgan ilk qadami desak mubolag'a bo'lmas:

Qonli tuvakday ko'zlariderlar,

Qoziq kabi katta ko'kragiderlar.

Bayt badbashara shaytoniy surat va siyrat haqida. Uning ko'zlariderlar qonli tuvakday, ko'kragi qoziqday. Keltirilgan sifatlash va tashbeh o'sha davr muhiti va hayotida uchraydigan narsa va hodisa hamda buyumlarga qiyos va taqqoslangan holda yaratilgan.

Talmeh:

Tardichday vujudin tark etar derlar,

Mol-u mulk orqada qoladi derlar.

Tadrish kimningdir oti, u haqda ishora qilinmoqda.

Qadimgi turkiy she'riyatda tashxis, nido, ruju', takror va boshqa she'riy san'atlar ham uchraydi. Ular ifodalab kelgan boshqa she'riy san'atlar ham mavjud. She'riy san'atlar ifodalab kelgan mazmun va tushuncha o'sha davr mafkurasiga borib taqaladi.

Aytilganlardan 2 ta xulosa kelib chiqadi:

Birinchidan, nazmiy-tasviriy vositalar qadimgi turkiy she'riyatning ibtidosidan darak beradi. Ikkinchidan, tasviriy vositalarda tadrijiylik bardavom ekanligini ko'rsatadi.

Alloma olim Beruniy she'rshunoslik bo'yicha o'z davrining etuk namoyandasini bo'lgan. U o'zining "Hindiston" deb atalgan bebahohi tarixiy asarda she'r qoidalari haqida quyidagilarni batafsil yozgan:

She'r tizimida biror ortiqcha yoki qo'shimcha so'z kiritilsa, vazn buziladi. She'rda so'z o'z o'rnida bo'lishi shart.

She'rda bir xil atama va ibora takrorlanaverishi nomaqbuldir.

Beruniyning uqtirishicha, hindlar she'rni do'st tutganlar. She'r o'qiganda ular barmoqlarini qisirlatib o'tirishni yaxshi ko'rganlar, nasmi unchalik yoqtirmaganlar. Olim nahv(grammatika) bilan she'rning aloqasini izohlagan. Uning ta'kidlashicha, nahv ilmidan so'ng eng katta ilm chanda(she'r vazni) hisoblangan.

Chanda sukukli (harakatsiz) va harakatli harflar bilan bog'liq she'r vaznidir.

Chanda engil-laghu, og'ir-guro', murakkab – bir laghu bir guro'ga teng engil va og'ir hijo kelib chiqadi. Bir lagho va ikkita guro'-ikki lagho va bir guro'dan iborat.

Hind she'rida ham yunon va arablardagi kabi bir misrani bo'laklarga bo'lganlar. Uni yunonlar ayoq deb atashgan. Bu so'zni hindlar ham qabul qilishgan. Shunday qilib, bayt 3 yoki 4 bo'laklardan iborat: 1-ayoq-pansha, 2-ayoq-jampa, 3-ayoq-maza kabilar.

Beruniyning "Hindiston" asarida badiiy tasvir vositalarining nazariyasi borasidagi fikrlariga ham duch kelinadi. Qomusiy olim davr she'r qonunlaridan kelib chiqib, tashbehlarning hayotiy, ya'ni haqqoniyligini e'tirof etgan.

Birinchi bosqich- umuman, o'zbek she'rshunosligining ilk tug'ilish davri (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino). Bu davrda timsol bilan timsollanuvchi, o'xshagan narsa bilan o'xshatilgan narsa aniq, mantiqan bog'langan holda o'rganilgan. She'riy san'atlarning dastlabki namunalari tug'ilgan. Ism va alohida tarixiy nomlar she'rda qo'llanilib, talmeh san'atiga asos solina boshlangan. Sifatlash va o'xshatishlarda esa etakchi omilga aylangan. Ayni vaqtida she'rshunoslik nazmiy-badiiy talabni ana shu yo'sinda qo'ygan. Forobiy va Beruniy qarashlari fikrimizning yaqqol isbotidir.

XV asrning birinchi yarmida Taroziyning "Funun ul-balogs'a" ilmiy asarining yuzaga kelishi o'zbek she'rshunosligining katta yutug'i bo'ldi.

Birinchi bosqichda Forobiy, Ibn Sino va Beruniylarning she'r ilmi haqidagi qarashlari tarixiyligi bilan juda muhimdir. Natijada, she'r nazariyasining tag kursisi qo'yila boshlandi. Nazariy qarashda yunon olimlari, aniqrog'i, Aristotelning "Poetika" asari tamal tosh bo'ldi. Forobiy yunon olimlari asarlari, shu jumladan, "Poetika"ga sharh yozish asnosida she'rshunoslik ilmini shakllantirdi. Forobiy Aristotelning "Fessennoat ash-she'r" ("She'r san'ati") nomli kitobidan ta'sirlanib, she'rni quyidagicha, izohlashga sa'y-harakat qilgan: birinchidan, she'r bilan rassomchilikning o'xhash noo'xhash tomonlarini to'liq ajrim qiladi. Har ikkisining quroli boshqa-boshqa bo'lsada, niyat va maqsadda umumiylik mavjud. Biri so'z bilan, biri bo'yoq bilan fikrlaydi. "Ammo ikkalasi ham odamlar tasavvuri va sezgilarida bir maqsadga taqlid qilishga yo'nalgan bo'ladi."

Yana bir o'rinda yozadi: "...shoirlar chindan ham tug'ma qobiliyatli va she'r bitishga tayyor tabiatli kishilar bo'ladi va ularda tashbeh va tamsilga layoqati yaxshi ishlaydigan bo'ladi".

Shuni ham aytish lozimki, Forobiyning she'rni tabiatga taqlid deyishi biroz jo'n ko'rinadi. U Aristotelning qarashi ta'sirida tug'ilgan. She'r jamiyat taraqqiyoti

bilan ham zich bog'liq. Shoir shu jamiyatning mustaqil fikrlovchi shaxsi darajasigacha erishadi.

Ayonlashadiki, Forobiy she'rni so'z san'ati darajasida e'tirof eta olgan. Boz ustiga uning tasavvur va sezgi uyg'otish xususiyatini ham to'g'ri idrok qilgan.

Ulug' Beruniy hindlar hayotida she'rning muhim mavqe tutishini qator misollar bilan isbotlab beradi.

Beruniy davri she'r tahlilida tashbehning hayotiyligi va aniqligi talab qilingan. U tashbehning haqqoniyligiga bir qator misollar keltiradi. Masalan, Eron shohi Afriduninoqlikni qo'ldan boy berib, erlarni avlodlariga bo'lib bergen ekan. Bu fikr kunda ustida go'sht burdalagandek bo'ldik, degan misrada o'z ifodasini topgan. Beruniy davrida odamiylik haqida ko'plab yozilgan va qator qiyoslar keltirilgan. Chunonchi, odamning odamiylici tilda deyilsa, yana bir o'rinda dilda, yana boshqacha qilib, ikki tangasida deyilgan. Hatto ikki tangasi bo'limgan kishiga xotin ham qaramaydi. Qashshoq tahqir etiladi va uning ustidan (boshqalar) mushugi ham haqorat qiladi. Keying qiyosda ikki tangasiz kishini boringki, uyidagi mushugi hm e'tiborga olmaydi, degan fikr nihoyatda turmush ko'rinishlari vositasida qiyoslangan. Beruniy o'sha davr shoirlining mana bu baytidagi timsolini o'ta aniqlik bilan tahlil qilgan:

**Bizning qo'shiqchi ayol ko'zlarini shunday o'ynatadiki,
Go'yo ikki gavhar ustida oniks doiralari bordek tuyuladi.**

Oniks- la'l toshining bir turi, uni teshib, taqinchoq qiladilar. Yana bir xili borki, uni teshmasdan uzuk ko'ziga o'rnatadilar. Teshilgan oniksda qora rang ko'p bo'ladi. Uzukka qo'yiladigani oq rang.

Oniksning sifati aniq bo'ldi. Endi Beruniy keltirgan baytni keltirib, unda teshilgan oniks timsolga keltirilganini nihoyatda kuzatuvchanlik bilan talqin qiladi. Masmuni: Bizning yuk ortilgan ulovlarimiz ko'zları xuddi teshilmagan oniks kabitdir. Holdan toygan hayvon ko'zida oq rang odatdan ko'p bo'ladi. Shu bois tasvirga teshilmagan oniks qiyosga keltirilgan.

Beruniy ba'zi timsollarning turli-tuman qo'llanilishi, hatto asl ma'nosidan chekinish holatlarini ham nihoyat sinchkovlik bilan kuzatadi. O'sha davr shoirlari "andom" timsolini ko'plab qo'llaganlar. Zotan, andom deyilganda forslar Siyovushning qonini, hindlar Pandu qabilasi bilan kiru qabilasi o'rtasidagi qirg'inbarot urushda to'kilgan qonni tushunganlar. Pandi koni pandidod deyilgan.

Ba'zi shoirlar andomni mayga, yana bir xillari esa ajdaho koniga nisbatlaganlar. Beruniy esa andomning moddiy asosini to'g'ri aniqlaydi. Ayonlashishicha, andom sahroda o'sadigan qizil rangdagi o'simlikning suyuqligidir.

Ma'lum bo'ladiki, shoirlar andomni turli narsalarga nisbat berib, timsolga jalb qilganlar. Ammo uning aslini Beruniy eng to'g'ri va haqqoniyligini isbotlab bergen.

O'xshagan va o'xshatilgan narsalar mushtarakligi, mantiqan juda aniqlik talab qilinishini yana bir misolda yaqqol kuzatish mumkin. Inson ko'z yoshini har qanday suvga qiyoslash nodurust topilgan. Ko'z yoshi faqat dengiz suviga nisbatlangan. Chunki ko'z yoshi sho'r bo'ladi, dengiz suvi ham odatan sho'r keladi. Har ikki suv ta'm jihatdan nihoyat mushtarak.

Tasvirning aniqligiga qarangki, ko‘zning oq qismi gavharga, qorachig‘i oniksga qiyoslangan. Shishani gavharga o‘xshatish noo‘rin hisoblangan. Chunki shishaning orqasidagi narsa ko‘rinadi, gavharning orqasidagi narsani ko‘rib bo‘lmaydi.

Beruniy shaftolining qizilini hijolat chekkan yuzga; baxillikni o‘zidan soqit qilishni dengiz o‘z suvidan tuzni chiqarib tashlashga; yomon xulqli odam tolga (mevasiz) o‘xshatilishiga misollar keltirilgan.

Beruniy she’r ritmini kuchaytiruvchi unsurlar haqida ham yaxshi fikrlarni bayon qilgan. U qofiya haqida shunday fikrni ta’kidlagan. Ya’ni qofiyagacha asosiy fikrni aytishi lozim, undan so‘ng qofiya keltirilishi kerak. Ana shunda qofiya she’rga alohida zeb, go‘zallik beradi.

Qisqasi, Beruniy she’rning aksar qoidalariga o‘z qarashlarini bildirgan. Ayniqsa, o‘xshagan narsa bilan o‘xshatilgan narsa o‘rtasida muvofiqlikka katta e’tibor berilgan. Masalan, yomg‘ir qatrasini dirhamga nisbat berib bo‘lib bo‘lmaydi. Uning poetikadagi katta xizmati tashbehning hayotiyligi va ahamiyatini asoslashdir.

Xulosa qilib aytganda, she’riyatning ibrido davrida qiyosga tortilgan har qanday ashyoviy dalil nazmiy fikrga mantiqan bog‘liq bo‘lgan. Boshqacha aytganda, tasvir, qiyos va ifodada haqqoniylilik hukmron bo‘lgan.

2.2-savol bo‘yicha darsning maqsadi:

XIV-XV asrning ikkinchi yarmi she’r poetikasi tarixining cho‘qqisi ekanini talabalarga singdirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 2.2.1. Ixtisoslashgan she’rshunoslar va ularning asarlari haqida ma’lumot bera oladi.
- 2.2.2. Tazkirada poetikaning qorishiq kelish holatlarini tushunadi.
- 2.2.3. Tanqidning poetikadagi mavqeini talqin qiladi.

2.2-asosiy savolning bayoni:

XIV-XV asrlar nafaqat adabiyotshunoslik, balki she’rshunoslik taraqqiyotining cho‘qqi davri bo‘ldi. Ixtisoslashgan she’rshunoslar etishib chiqib, qonunlashgan poetika nazariyasini yaratdilar. Nazariya bilan adabiy tanqid ham adabiyotshunoslikning bag‘rida o‘sgan. Shu o‘rinda bir g‘ayriilmiy qarashga aniqlik kiritaylik. Adabiy tanqidning shakllanishi va tug‘ilishini oktabr to‘ntarishiga bog‘lab qo‘yish shu sohaning tarixi va nazariyasini o‘rganmaslik yoki atayin undan ko‘z yumishdan kelib chiqqan qarashdir.

Adabiyotshunos Izzat Sultonning aytishicha, adabiy tanqid badiiy ijod paydo bo‘lgandan tug‘ila boshlangan. Baski shunday ekan, barcha milliy adabiyotda bo‘lganidek, o‘zbek adabiyotida ham tanqid juda qadimdir. Uning eng ko‘zga ko‘ringan janri tazkira hisoblanadi. Unda nazariya ham poetika ham tanqid ham mujassam bo‘lgan. Poetika adabiyot nazariyasining o‘zagini tashkil qilishini hisobga olsak, yuqoridagi fikr yanada oydinlashadi. Boshqacha aytganda, tazkirada adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari qorishiq (sinkretik) holda bo‘lgan. Shunisi aniq bo‘ladiki, adabiy tanqid mustaqil ravishda ajralib chiqa olmagan. Bu jarayon o‘zbek adabiyotshunosligida uzoq kechgan.

Ilmda “tanqid” so‘zining kelib chiqish tarixiga aniqlik kiritilsa, o‘zbek adabiy tanqidchiligining paydo bo‘lish jarayoni ham oydinlashadi. Ayonlashishicha, tanqid so‘zi ham birdaniga paydo bo‘lgan emas. Aslida, tanqid arabcha naqd so‘zidan kelib chiqqan, “naqd” so‘zi esa “naqada” fe’lidan yasalgan. Naqd so‘zining asli ma’nosi saralamoqdir, ya’ni yaxshidan yomonni, aslidan noaslni ajratmoq demakdir. Naqd va nasiya degan so‘z ham ana shu asosdan kelib chiqqan. Naqd saralovchi, asl tangani noasldan, qisqasi, pulni saralash jarayonidir. Tangani saralovchi esa “noqid” yoki “naqqod” deb yuritilgan. Naqd so‘zini qanday qilib tanqid atamasi paydo bo‘lgan? Arablarda tanqid va munaqqid so‘zlari umuman yo‘q.

Adabiyotshunos S.Olimov “Navoiyning she’rshunos shogirdi” kitobida (11-bet) tanqid arabcha naqddan kelib chiqqan bo‘lsa-da, u boshqa, aniqrog‘i, fors tili kirib kelib, talaffuz o‘zgarishiga uchrab, tanqid, keyinchalik, munaqqid shaklini olgan, degan aqidani olg‘a suradi. Bu fikrda jon borga o‘xshaydi.

Agar tanqid yoki munaqqid so‘zlari arab tilida bo‘lganda edi, sharq mumtozlari, aniqrog‘i, ustoz Navoiy ana shu so‘zлarni o‘zgarishsiz (so‘zsiz) qabul qilgan bo‘lar edi. Sharq poetikasida tanqidiy fikrlar “ayb” yoki ko‘plikda “ayyub” so‘zi bilan ifodalangan. Sababi, adabiy tanqid ilmiy uchlik bag‘rida yashab kelgan. “Ayb” ilmiy uchlikning orasidan ajralib chiqqandan so‘ng u “ilmi naqd” atamasi bilan yuritilgan. Qizig‘i shundaki, ilmiy uchlikka alohida “ilmi naqd” bobি kelib qo‘shilgan. Masalan, Qays Roziyoning “Al-Mo‘jam”, Atoulloh Husayniyning “Badoyi-us sanoyi” asarlarida “Ayb” ilmi naqd alohida bobda berilgan.

Navoiy zamondoshi Koshifiyning “Badoyi’ ul-afgor fi sanoyi’-ul-ash’or” kitobida naqdnинг lug‘aviy ma’nosi va vazifasi aniq berilgan. “Nazm aybi bayonidakim, uni naqd derlar va adabiy ilmlardan deb bilurlar. Va naqd lug‘atda “saralamoq” vasof tangani qalbaki tangadan ajratmoq” degani. Istilohiy ma’noda “Yaxshi she’rni yomonidan ajratish va ularni o‘zaro farqlash ilmi”dan iborat. Ayblisini yaxshilash uchun beaybni namuna qilib ko‘rsatish mumkin.

Tanqid so‘zining paydo bo‘lishi haqida tasavvurga ega bo‘ldik. Ammo u o‘zbek adabiyotshunoslige qanday va qachon kirib kelgan? So‘z shu haqda.

Rustam Tojiboyev “Tanqid” termini qachon paydo bo‘lgan? (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1985-yil 11-yanvar) maqolasida Ahadullo Hayrulla o‘g‘lining “Sadoyi Turkiston” (1914-yil 19-noyabr)da bosilgan “Tanqid” sarlavahali xabarida “tanqid” aslida tatarchadan kirib kelgan, degan fikriga qo‘shiladi. Sultonmurod Olimov sharq poetikasidagi “ilmi naqd”atamasining borligini ro‘kach qilib, bu fikrni rad etadi. Aslida keyingi fikr to‘g‘ridir.

O‘tmishdagи naqd she’r ilmida nihoyatda keng bo‘lgan. Ammo o‘tmish poetika bugungisidan orqada qolgan tomoni badiiy vosita va she’r san’atlarini g‘oyaviy mazmun bilan bog‘lab tanqid qilmasligida ko‘rinadi. Bu ilmi naqdda mazmun e’tiborga olinmagani emas. Atoulloh Xusayniyning ayrim san’atlarning izohiga kelganda “Likulli jadidin lazzatun” (“har bir yangining lazzati bor ”) deyishini unutmagan.

Bugungi poetikamiz esa o‘tmishdagidek “ayb”ni ko‘rsatish, uni tasniflash jihatidan orqada. Shuni ham aytish lozimki, mustaqillikka erishgandan so‘ng qadimiy poetikaga e’tibor kuchaydi. Biroq ijodkorning she’r nazariyasini chuqr

bilishi shart qilib qo‘yilmasligi, nazariya jihatdan puxta qurollanmasligi ham aslida nuqson hisoblanishi kerak. O‘tmish poetikada she‘rshunoslik bilan shug‘ullanish va uning nazariy asoslarini chuqur o‘zlashtirish shart qilib qo‘yilgan. Hazrat Navoiy 56 yoshida shogirdi Atoulloh Husayniydan she‘r san’atlarini puxta o‘rgangan. Hatto, “Majolis un-nafois” ni poetika nazariyasi jihatidan qayta tahrir qilib chiqqan.

Atoulloh Husayniy tajnis haqida gapirib: “bu fan tolibiga alarni ilojsiz bilmak zarurdir” degan.

Ilmi naqdning tekshirish tamoyillari ham mavjud bo‘lgan. Eng muhimi, bu borada qiyosiylik bo‘lgani ilmda ma’lum. Qiyosiy usullar 4ga bo‘lingan: 1) san’atlarning qo‘llanish darajasi va doirasi; 2) o‘zi va o‘zga olimlar fikrini chog‘ishtirish; 3) ba’zi san’atlarni tushuntirishda unga yaqin san’atni taqqosga jalb qilish; 4) nazariy fikr bilan amaliyat, ya’ni she‘riy parchalarni o‘zaro muqoyasa qilish usuli.

Qisqasi, sharq mumtoz poetikasi so‘z ohorligiga asoslangan (ibdo‘-yangi so‘z) nazariyadir. Biz uni ko‘pincha so‘z o‘yini deb keldik. Holbuki, sharq poetikasida soz o‘yini degan san’at yo‘q.

Ilmiy naqd she‘rshunoslikning yaxshi va yomon jihatlarini elovchi soha bo‘lganligi quyidagi “ayb”tasniflardan ayonlashadi: Nasx ayb, salh ayb, naqd ayb kabilar. Afsuski, zamonaviy she‘rshunoslikda bunday nuqsonlar tasniflangan emas.

Mazkur mavzuga oid misolni tahlil qiling:

1. U menga shaftoli uzatdi. Shaftolining ko‘rinishi hijolat chekib qizargan qizga o‘xshardi.
2. U baxillikni shiddat bilan o‘zidan nari surar edi. Huddi dengiz o‘z suvidan tuzni chiqarib tashlayotgani singari.

Muhokama uchun savollar:

1. Belinskiyning she‘r poetikasini o‘rganish borasidagi qarashlari o‘zbek she‘rshunosligining tarixiy taraqqiyotiga to‘la mosmi?
2. Farobiyning she‘r tabiatiga taqlid tushunchasini qanday izohlaysiz?

2.3-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

XXasrda badiiy asarni g‘oyaviy-ijtimoiy nuqtai nazardan baholash, o‘rganish va tahlil qilishning zararli oqibatlarini talabalarga tushuntirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 2.1. Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng she‘r poetikasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlaydi.
- 2.2. She‘rni sotsiologik tahlil qilish tamoyilning zararli tomonlarini tushunadi.

2.3-asosiy savolining bayoni:

XX asrga kelib, she‘rni tahlil qilish, tushunish borasida g‘ayriilmiy yo‘nalish paydo bo‘ldi. Uni sotsiologik oqim deyishdi. Bu oqimda she‘r badiiy-estetik

yo'sinda emas, balki ijtimoiy-g'oyaviylik asnoda o'rganildi. Hatto she'rdagi texnik xatolar ham ijtimoiy jihatdan baholanadigan bo'ldi.

XX asrning 30-yillariga kelib, she'r ritmi, vazni, qofiyasi va pafosda o'zgarish sodir bo'ldi. Uni sotsiologik oqim nuqtai nazardan o'rganish va baholash hukmron tus oldi.

She'rdagi vazn, ritmik va badiiy nuqsonlar ham g'oyaviylik mezonda baholandi. Usmon Nosirning Pushkin asarlari tarjimasida mahoratsizlikka yo'l qo'yilgan o'rin g'oyaviy-siyosiy nuqsonga yo'yildi.

Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga" she'ri aksilinqilobiy ruhda baholandi. Cho'lpon bilan bir qatorda Fitrat she'riyatida ham faqat "siyosiy g'alizlik" izlandi. Oqibat she'riyat ijtimoiy publitsistik tamoyil olib, siyosatlashgan nazmiyot keng tomir otdi.

Hamid Olimjonning bir qator she'rlari prof.A.Sa'diy tomonidan "biologizm"da ayblanib, tanqid qilindi. H.Olimjonning o'zi esa sotsiologik oqimga berilib, Fitrat ijodini g'oyaviy-siyosiy jihatdan bir tomonlama baholadi. Sotsiologik tahlilning zararli oqibati haqida Oybek qator ilmiy maqolalarini yozdi. Bu borada adabiyotshunoslikda ko'plab ilmiy maqolalar e'lon qilindi.

Muhokama uchun savollar:

1. Cho'lponning istiqlolga bag'ishlangan she'rlarini sotsiologik oqimda baholashning tub zararli mohiyati nimada?
2. Siyosatlashgan she'rni bugungi kunda qanday baholanishini ma'qul ko'rasiz?

Adabiyotlar: 8(25-32), 11(181-191), 50(3-7).

Mazkur mavzuga oid misolni sharhlang:

Elin etti, tuzdi, bayu buduq,
Bo'ri qo'y bila suvladu ul o'dun.
(Yusuf Xos Hojib)

3-mavzu: POETIK NUTQ

Asosiy savollar:

- 3.1. Nazmiy nutq va uning tasnifi.
- 3.2. Nazmiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari.
- 3.3. Nazmiy nutqni uyushtiruvchi unsurlar.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Badiiy nutq, poetik nutq, og'zaki(tovush) va yozma nutq (harfiy), tashqi va ichki nutqning to'rt unsuri.

Mavzuga oid muammolar:

Oddiy so'z obrazmi yoki semantiklashgan so'z obrazga aylanadimi, bunga munosabatingiz? So'zning atamalik va timsollik xususiyati borasida hali aniqlanish ilozim bo'lgan muammolar bor deb o'ylaysizmi?

3.1-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Nazmiy nutqning o‘ziga xos belgi va turlarini talabalar tushunchasiga singdirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

1. Nazmiy nutqni boshqa badiiy nutq ko‘rinishidan farqlay oladi.
2. Nazmiy nutqning tasnifini keltiradi.
3. Nazmiy nutqning uyushtiruvchi unsurlarini tushunadi.

3.1-asosiy savolining bayoni:

Nazmiy nutq badiiy nutqning bir ko‘rinishidir. Nazmiy nutq-sayqallangan nutq. Poetik nutqga turlicha ta’rif berilgan. Jumladan, Jomiy: “She’r (poetik nutq) muqaddimoti xayol, ya’ni tinglovchi xayolini qo‘zg‘atuvchi va ma’nosi unga iqbol beruvchidir” degan.

Poetik nutq shakliga ko‘ra og‘zaki (tovush) va yozmaga (harfiy) bo‘linadi. Aslida yozma nutq ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy nutqga tasniflanadi. Poetik nutq badiiy nutqka mansub. Poetik nutq-monolog va diolog ko‘rinishga ega.

Tashqi nutq diolog, ichki nutq monolog nutqidir. Diolog nutq ikki yoki undan ortiq shaxslar orasidagi nutq hisoblanadi.

Dedi: qaydin sen ey Majnuni gumrah,

Dedi: Majnun vatandin qayda ogoh.

Monolog nutq:

Hayhot biror osuda dam yo‘q.

Ko‘ngil yig‘laydiyu ko‘zlarda nam yo‘q.

Epik asarlardagi Yo‘lchi, G‘ofir, Jamila, Miryoqublarning monologlari ham ichki nutqqa mansubdir.

Ilmiy nutq - o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Boshqacha aytganda, fan sohasiga oid nutq. U ilmiy mantiq va maxsus atamalarga asoslanadi.

Rasmiy nutq ba’zan idora nutqi ham deyiladi. Uning o‘ziga xos jumla tuzishlari va tayyor iboralari mavjud. Abdulla Qahhorning “Nutq” hikoyasi buning yaqqol misolidir.

Publitsistik nutq- matbuot tili. Unda publitsistik va badiiy nutq qorishi qo‘llaniladi.

Badiiy nutq ifodali va obrazli nutqdir. Unda jonli xalq tilining barcha unsurlari ishtirok etadi. Badiiy nutq - obraz, xarakter va tip yaratish nutqi. U sayqallangan nutq.

Muhokama uchun savollar:

- 3.1. Nazmiy nutq sayqallangan nutq ekanligini tavsiflang.
- 3.2. Poetik nutqni shaklga ko‘ra tasniflang.

3.2-savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Boshqa nutqlardan poetik nutqning o‘ziga xosligi haqida talabalarda tushuncha hosil qilish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 3.1. Poetik nutning o‘lchovli nutq ekanligini tushuna oladi.

- 3.2. Poetik nutqning musiqiylik jihatini ocha biladi.
- 3.3. Poetik nutqdagi o‘z takrorini misollar vositasida asoslaydi.

3.2-asosiy savolning bayoni:

Nasriy nutq- sochma, poetik nutq - o‘lchovli nutq. O‘lchovli bo‘lishi bo‘g‘in, turoq, urg‘u, vazn va ritm bilan bog‘liq. Bundan tashqari, misralar oxiridagi ohangdoshlik ham poetik nutqqa alohida jarang beradi. Poetik nutqda bir xil so‘zning qaytalanishi qonuniy holdir. Nasrda esa bu hol g‘ayriqonuniydir.

Ul sarvning soyasida so‘ldi gul netmak kerak, Sarvdin tobut yasab guldin kafan etmak kerak.

Baytda sarv, gul, so‘zлari qaytalanganki, hech qanday g‘ayritabiylilik ko‘rinmaydi, balki shunday bo‘lishi taqozo qilinadi. Birinchi misra- “sarvning soyasinda” odatan bek oyimlar soyalaydi va dam oladi. Bu hayotiy hodisa. Ikkinci misradagi “sarv” so‘zining takrorlanishi tobut yasash jarayoni bilan aloqador. Islomgacha sharqda sarvdin tobut yasalib, mayit qabrga qo‘yilgan. Uni inkor qilib bo‘lmaydi. Sarv so‘zidagi “s”tovushi bilan tavzi’ san’ati tashkil qilinib, ajoyib xushohanglik paydo qilingan.

Poetik nutqning “joni” ritmdir. Ritmnini turoq, vazn, qofiya yuzaga keltiradi. Turoq bo‘g‘indan tashkil topadi. Turoq bo‘g‘indan tashkil topadi. Turoq, deb bo‘g‘inlarning muayyan guruhiga aytildi. Vazn esa turoqlarning guruhlanib kelishidir.

Qofiya misra oxiridagi so‘z yoki so‘zlarning ohangdosh bo‘lib kelishiga asoslanadi. Ohangdosh so‘zlar misraning boshida yoki oxirida ham kelishi mumkin. Hatto, misra tarkibidagi so‘zlarda ham tovushlar takrori kelishi mumkin. Bular birqalikda she‘r ritmini uyushtiradi. Ritm esa she‘r jarangdorligi va ifodalilagini yuzaga keltiradi.

Muhokama uchun savollar:

- 3.1. Nasriy va nazmiy nutqqa misol keltirib, ularni qiyoslang.
- 3.2. Poetik nutqning o‘lchovli nutq xususiyatini ochib bering.

3.3-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Nazmiy nutqni uyuştiruvchi to‘rt unsur haqidagi tushunchani talabalarga singdirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 3.1. Birinchi unsur-so‘zning atamalik va obrazlilik xususiyatini tushuntira oladi.
- 3.2. So‘zning ma’no ko‘chish xususiyatini misollar vositasida ocha biladi.
- 3.3. Nazmiy nutqni uyuştiruvchi uchinchi unsurni ayta oladi.

3.3- asosiy savolning bayoni:

Poetik nutqni asosan 4 ta unsur uyuştiradi: birinchi unsur-so‘z. So‘z denotativ, semantic va konotativ ma’nolarga ega. Uning shakli: K q D Q S. Gul so‘zi o‘simlikni anglatadi, ya’ni denotativ ma’no. Unga –i qo‘sishchasini qo‘shsak-guli, ya’ni semantik ma’no paydo bo‘ladi. Anglashiladiki, so‘z ikki ma’noga ega:

a) atamalik-denotativ (nomlash);

b) qo'shimcha-ekspressiv emotsional ma'nolar;

- stilistik;
- ekspressiv;
- konotativ.

Konotativ ma'noning formulasi:

K q D Q S

K - qo'shimcha ma'no.

S - semantik ma'no.

D - denotativ ma'no.

D - yuz-odam boshining old ko'rinishi. Uni konotativ ma'noga aylantiraylik.

Bet-salbiy darajasi ortiq, aft-salbiy darjasi ortiqroq, chehra-ijobiy ma'no darajasi ortiq, jamol-poetik ma'nosi ortiqroq, oraz-mutlaq poetik ijobiy ma'no darajasi ortiq.

Keltirilgan misolimizda yuzining poetik joziba tasviri sinonimik so'zlarda ortib borgan. Oraz va jamol poetik joziba so'z - tushuncha.

Poetik nutqda so'z birikma yoki gap shaklini olib, qo'shimcha ma'no anglatadi. Boshqacha aytganda, ma'no o'zgarishi sodir bo'ladi. Masalan, olmazor. Olma predmet tushunchasidan bog'u - bo'ston ma'nosiga o'zgardi.

So'z boshqa so'z bilan birikib, aloqaga kirishib, yangi ma'no yoki ekspressiv ma'no anglatadi. Yuz so'ziga gul so'zi qo'shilsa gul yuzli birikmasi hosil bo'ladiki, andom ko'rinishni bildirgan so'z (yuz) dilbar shaxs ma'nosini bildirmoqda. Shuningdek, pari Q chehra, pari Q vash kabilar.

So'z birikmasidan gap tuzilishi til ilmidan ayon. Ammo gapning ohangi, urg'u qaysi so'zga tushishi bilan ma'noda o'zgarish paydo bo'ladi.

Masalan:

Darak: Bulbul keldi, bahor boshlandi.

So'roq: Bulbul keldi. Bahor boshlandi?

Undov: Bulbul keldi. Bahor boshlandi!

Buyruq: Bahor kelsa, ekinni boshla.

Gap qurilishi va uning ohangi bilan bog'liq holda poetik nutqda notakror she'r san'atlari dunyoga keladi.

Nido (murojaat): Binafsha, senmisan, binafsha senmi

Ko'chada aqchaga sotilgan?

(Cho'lpon)

Istihfom (ritorik so'roq):

Odammisan, yoki parisان bu nazokat birla sen?

Hurmisan, g'ilmonmusan, jannatmisan, rizvonmisan?

(Mashrab)

Amr na nahiyl:

(buyurish va man qilish):

Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,

Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Ikkinci unsur-balogsat, ya'ni ko'chim va uning turlari, poetik sintaksis (ekspressiv-stilik) ko'rinishlari.

“Menim bir oshnomning o‘ldigi xabari kelar. Men hech xafalanmayman. Bir vaqtda maktub kelar, maktubda alarming ko‘rgan kunlari adabiyot ila bunday yozilur:

Gullar bila bik qayg‘uli mahzun boqiyurdi,
Ko‘z yoshlarimiz to‘xtamay, tun-kun oqiyurdi.

Mana shuni o‘qib, albatta, bir ta’sir ila ularning qayg‘usiga qo‘shilurmiz.”

O‘lim xabari eshitilganda hayajonga ham tushmagan shaxs uni adabiyot tilidan eshitganda o‘zganing qayg‘usiga sherik bo‘lib, chuqur motam va alamga cho‘kkan.

Ko‘chim sharq poetikasida balog‘at (badiiy kalom) deyiladi. U 2 turga bo‘linadi.

Sodda ko‘chimga sifatlash, o‘xshatish, murakkab ko‘chimga istiora, metonimiya, sinekdoxa, jum qolish, tashxis, ellips kiradi.

Sifatlash:

Kumush qishdan, zumrad bahordan,
Qolishmaydi kuzning ziynati.

Tashbeh:

Shahar chun do‘zax kabi zindon edi,
Tashqari chun ravzayi rizvon edi.

(“Yusuf va Zulayho” dostonidan)

She’riyatda so‘z-sulton. (Abay), so‘z-sehr (A.Oripov). U bilan surat chizish mumkin (Gorkiy).

Mashhur adabimiz Abdulla Qodiriy Ra’no suratini so‘zda biljirab o‘tirmasdan, ra’no gulining suvi bilan tortar edim, degan va “ta’birimiz qo‘pol tushmasa, bu go‘zal qiz och ra’no gulidir, yoki oq-sariq tusda yaratilgan edi”, deb uqtiradi.

So‘z sura ham chizadi. Bu uning tasvir jozibasi. So‘z sehrlaydi. Buning izohiga Cho‘lpordan misol keltirish mumkin.

Uchinchi va etakchi unsur ritmdir. Ritm o‘zicha ma’no anglatmaydi. U tinglanadi va his qilinadi. Boshqa poetik unsurlar uyg‘unligida ma’no kasb etadi. Ritm biror narsa-hodisaning bir me’yorda takrorlanishidir:

Olma deb otgan otam,
Behi deb sotgan odam.

Baytda vazn, turoq, qofiya va radif bir me’yorda takrorlanmoqda. Shuningdek, ritmga tovushlar, misra boshi-anafora, hojib misra oxiri-epifora, turli xil tovush qaytariqlari(alliteratsiya) ham kiradi.

Uni qora qonga qorurlar.

Misradagi “q” tovushi tavzi’ san’ati bo‘lib, fojaiy shovqinli ovozning hosil bo‘lishiga ko‘maklashmoqda. Zaynabning ruhiy ahvolini ifodalashda alohida xizmati bor.

Anafora: Hayr sizga, sho‘x yulduzlar, senga g‘amli oy,
(muzoraa) Hayr senga, oh feruzam, qalbim singlisi.

Epifora: Muqaddas, mo‘tabar ulug‘ vatanim,
Sharaflar, shonlarga to‘liq vatanim.

Anafora va epifora birgalikdaham kelishi mumkin.

Menga yolg‘iz Omonimni qo‘y,
Menga o‘sha yomonimni qo‘y.

To‘rtinchi unsur - poetik sintaksis, ya’ni she’rda gap qurilishi ham muhim o‘rin tutadi. Misra va baytlarda gap qurilishi, gapda so‘zlarning joylashishi, qaytarilishi, o‘rin almashib qaytariq (turlari), ta’dil, aks san’ati, muvozina tarse’ va hokazo. Masalan, nasrda so‘zning qaytalanishi noqis hisoblanadi, ammo poeziyada esa san’at sanaladi. Birgina takror ritm uyg‘unligi uchun alohida xizmat qiladi.

Poetik nutqda gap qurilishi hamma vaqt grammatik qoidaga asoslanavermaydi. Vazn, qofiya va ritm talabi bilan gap tarkibidagi gap bo‘laklari o‘rin alamshib kelishi mumkin.

Inversiya: Chappar urib gullagan bog‘in,
O‘par edim vatan tuprog‘in.

Baytda to‘ldiruvchi oxirida, kesim esa boshida kelgan.

Tasdir: Omon topdi bunda parcha non
Non demaki, Omon topdi jon.

Tasbe: Adolatdin o‘ldi ul osoyishi,
El osoyishi - mulk osoyishi.

Mukarrar (qaytariq san’atlari):

“Layli, Layli!” debon chekib un,
El deb, “Majnundir, ushbu Majnun”.

Misolda bir so‘z aynan ikki marta takrorlanib, chiziqcha orqali yoziladi.

Kuyib - kuyib kuylar u

Kulib - kulib o‘ldirar!

3.Bir so‘z bir misraning o‘zidayoq qaytalanishi mumkin.

Chu yozi bila ark etib mosuvo

Fano olamidan o‘zni qil fano.

4.Radif ham qaytariqqa mansub.

Kel, birovga ko‘ngil ber,

Bir yigitga deb gul ber.

(Hamid Olimjon)

5.Ta’dil arabcha sanoq ma’nosini bildiradi. Misrada gapning biror bo‘lagi uyushib keladi.

Dilorom, Diloro, Dilosodurur,
Gulandom, Sumanbo‘, Sumanosodur.

(Muhammad Yusuf)

Bosh bo‘lak qaytalangan.
Qoshu ko‘zu zulfu yuzi qomating qastimdadur.
Qaysini aytay, meni boshdin oyoqing kuydirur.

(Lutfiy)

Aks san’ati - teskari ma’noni bildiradi.

Misol:

Har ne ul buzdi, bu borin tuzdi,
Bu borin tuzdi, har ne ul buzdi.

(Navoiy)

Muvozina san'ati vazndoshlik va ritmik uyg'unlikka asoslanadi.
Ko'zimni ko'tarmasam ko'zingdin,
Yuzimni ko'tarmasam yuzingdin.

(Navoiy)

Tarse' san'ati arabcha javohir qadab ziynatlash ma'nosini bildiradi, unda qofiyadoshlik va so'zlarning ostin - ustun joylashish manzarasi birinchi o'rinda turadi.

Yoshi ko'pga ketadi,
Boshi ko'kga etadi.

(H.Olimjon)

Muhokama uchun savollar:

1. Poetik nutqni uyushtiruvchi unsurlarni tasniflang.

2. So'zning konotativ ma'nosini izohlang.

Adabiyotlar:2(323-422),8(287-294),50(8-15)

4-mavzu: RITM NAZARIYASI

Asosiy savollar:

4.1. Ritm-she'r badiiyati asoslaridan biri.

4.2. Ritm ko'rinishlari.

4.3. Obraz, timsol, tafsil (detal) va ritmnинг muvozanati.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Ritmik zarb, ritmik urg'u, ritmik marom, tafsil, timsol, tekis harakatli ritm.

Mavzu bo'yicha muamolar:

Tafsil, timsol va obrazning o'zaro munosabati ilmda to'liq tavsiflangan, deb o'ylaysizm?

4.1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:

Boshqa unsurlar qatori ritm she'r badiiyatini uyushtiruvchi vosita ekanligini talabalarga singdirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

4.1. Ritm she'r unsurlarining asosi ekanligini anglab oladi.

4.2. Ritm voqelik va uning ifodasiga ko'ra o'zgarishga uchrashini ayta oladi.

4.3. Tekis va notekis harakatli ritmni farqlay oladi.

4.1. Asosiy savolning bayoni:

Ritm - she'r badiiyati bilan aloqador unsur. Ritmgaga bo'g'in, turoq, vazn va ularning ko'rinishlari, qofiya, radif va ularning turlari asosdir. Keltirilgan unsurlar shunchaki takrorlanishidan emas, balki muayan va tizimli qaytalanishidan hosil bo'lgan musiqiylik asosida ifodalik yuzaga keladi. Ritm o'zicha hech qanday ma'noga ega emas. U boshqa poetik unsurlar bilan aloqada ma'no kasb etadi. U

she'rning poetik jarang va pafosini ta'minlaydi. Pafos esa badiiyatning "qaymog'i". Shu ma'noda ritm davr va uning voqeligi bilan chambarchas bog'liq.

70-80-yillar she'riyati ritmda tekis harakat o'rniga notejis harakatli ritm paydo bo'la boshladi. Bunga davrdagi fikriy keskinlik, isyonkorlik va shiddatilik jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Voqelikdagi to'lqin ritm harakati va uning jarangida ham o'zgarish yasadi. Ana shu holatning o'zi ritmnинг she'r badiiyati bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Ayonlashadiki, ritmda ham davr ruhi va muhri yotar ekan.

XX asrning so'nggi choragida she'riyatda tub o'zgarish yasladi. Uni adabiyotshunoslar "ijtimoiy faollik" deb izohladi, to'g'rirog'i baholadi. Bundayroq she'rlarni esa "ijtimoiy passivlik"da tanqid ham qildi. "Ijtimoy passiv" she'rlarning zamirida she'riy to'lqin, uning ritmik olamida maxsus oqim paydo bo'lgan ediki, buni tanqidchilar zinhor payqamadi. Ayniqsa, bir tekisdagi ritm parchalandi. Notejis harakatdagi ritm paydo bo'ldiki, u zinzpoyachilik she'r yoki Mayakovskiy uslubi deyildi. Agar notejis harakatli ritm tan olinsa, aruz va barmoqning tekis harakatli ritmiga shakl keltirilgan bo'lar edi.

Ritmdagi o'zgarish milliy uyg'onish davri she'riyatiga allaqachon kirib kelgan edi. Biroq maxsus o'rganilmadi. U 70-80-yillar she'riyatida yangi to'lqin hosil qilgan vakillar ijodida mukammallashdi. Bunday yangi she'riyat va ritmnинг miqiyos olishida mumtoz, xalq og'zaki ijodidagi baxshiyonalik, xitoy, yapon, ispan, rus va boshqa xalqlar she'riyati an'analari ta'sir ko'rsatdi. Rus she'rshunosligida allaqachon tan olingen notejis harakatli ritm o'zbek she'riyatida ham rang-barang tus oldi: 1) oddiy notejis harakatli ritm; 2) o'rtacha tezlikdagi notejis harakatli ritm; 3) g'oyani keskin o'zgartiruvchi notejis harakatli ritm.

Yangi she'rdagi turoqlarning parchalanishiga bois nima? Hamma gap shunda. Ritmik urg'u, ritmik mantiq zamonaviy she'rda ustuvorlashdi. Boshqacha aytganda, she'r g'oyasi, timsollari va ritmi o'rtasida muvozanat va yaxlitlik paydo bo'ldi, aniqrog'i, talab qilindi. Misol orqali tushunishga tutnaylik.

Donishmand dediki,	6
Osonni kutma,	5
Imkondan ortiq, bir imkonni kutma,	11
Daryodan daryoni talab aylagil,	11
Va lekin hech qachon ummonni kutma.	11

Davr ruhiga mos va shoir niyatidagi ijtimoiy ta'kid topuvchi mazmunni notejis harakatli ritmik zarbda berish uchun birinchi va ikkinchi misralardagi 6+5 turoq sindirilgan.

Donishmand falsafiy fikrlovchi yaxlit obraz, daryo va ummon ramziy-majoziy timsollardir. Ular vositasida davrning ijtimoiy da'vat yo'sindagi fikr aytilgan. Bu fikr nafaqat g'oya, timsol, balki ritmnинг bosqichlari-mantiqiy zarb va ritmik urg'uga ham bog'liq. "Donishmand dediki"- mantiqiy zarb, "osonni kutma"- ritmik urg'udir. Mantiqiy zarb va ritmik urg'u she'r mazmuni va g'oyasiga kuchayish va ustuvorlik bergen. Adabiyotshunos Dilshod Rajabov har qanday uslubda zamona muhri yotishini ritmda ham ko'radi. Balki shunday ekan, davrning

ijtimoiy-siyosiy shiddatli fikrlari oddiy she'r ritmida emas, balki notekis harakatli ritm va mantiqiy zarbda ifodalaniishi zarur.

Ko'p hollarda she'r vaznli, qofiyali g'oya deyiladi. Bu masalaning hali mohiyati emas."She'rda kishi miyasini titratuvchi, sezgilarini qo'zg'atuvchi bir kuch, ma'naviy kuch bor. Shunday bir kuch bo'limgan, so'z va vazn, qofiyasi bo'lsin "she'r bo'la olmaydi" (Fitrat). G'oyani uyuştirishda she'rning boshqa unsurlariga ko'ra ritm bosh rolni o'ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, ritm simfoniyani boshqarayotgan derijyorni eslatadi.

Ritm umumiy tarzda ko'rinsa, uning namoyon bo'lishi vazndir (Izzat Sulton).

She'rshunos U.To'ychiyev ritmnинг o'ziga xos tabiatini uch holatda ko'radi:

- a) biror bir me'yorga asoslanishi;
- b) takrorlanishi; v) uni faqat eshitib his qilish.

Ritm-she'rning "jarangi" (Bualo), "dardi" (pafosi) (Navoiy), "kuchi" (Fitrat).

Muhokama uchun savollar:

- 4.1. 70-80- yillar she'riyatida qanday sababga ko'ra ritmda o'zgarish bo'ldi?
- 4.2. Ritmga ta'rif bering va unga hayotiy misollar keltiring.
- 4.2. Asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:

RITMNING TURLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI TALABALAR BILIMIGA KO'CHIRISH

Identiv o'quv maqsadlari:

- 4.1 Zarb ritmni tushuntiradi.
- 4.2 Tovushdoshlik ritmni misollar vositasida aytta oladi.
- 4.3 Obrazlilik ritmni tushuntirib beradi.

4.2-asosiy savolning bayoni:

Ritmning konkret ko'rinishlari Tomashevskiy, Kojinov, Bluxatov tomonidan tasniflangan. Shundan Bluxatov tasnifiga tayanish mumkin.

1. Zarb ritmi.
2. Obrazlilik ritmi.
3. Tovushdoshlik ritmi.
4. Bayt va band ritmi.

Ritm - she'rning "joni". Ritm ohang, musiqiylik, jarangdorlikka asoslanadi. Jarangdorlik poetic ma'noni yuzaga chiqaradi, harakatga keltiradi, bu ritmning obrazlilikka daxldor tomoni.

Hozirgi she'r ilmida ba'zan ritm atamasi o'rniga zarb, marom so'zleri qo'llanilmoqda. Zarb bir marta urish ma'nosini beradi. U ritm atamasi ifodalagan mazmunni angalatmaydi. Zarb takrorlanmaydi. Ritm esa bir me'yorda takrorlanishni talab qiladi.

Abdulla Oripovning “O’tadi karvon” qit’asidagi “alam qilar” birikmasi ritmik zarbdir. To’rt misradagi barcha so‘zlarning orasida birikma (alam qilar) fikrning qaymog‘i bo‘lish bilan birga asosiy fikr, urg‘u, zerb unga tushmoqda. Yana takror aytamiz, zerb ikki va undan ortiq bo‘lishi mumkin. Faqat zerb misra yoki baytlararo takrorlanishi mumkin. Abdulla Oripovning “Inson qalbi bilan hazillashmang siz” zerb misrasi har to’rt misradan so‘ng naqorat vazifasini ham o‘tab kelgan. Ritmik zerb erkin vaznda serob uchraydi. Ritmik zerbning xususiyatlari quydagilardir:

- ritmik zerb ritmnинг doimiy unsuridir;
- ritmik zerb his-hayajonni she’r vazniga moslashtiradi;
- ritmik zerbda mantiqiy urg‘uning bo‘lishi.

Marom so‘zi me’yor, bir xil o‘lchov ma’nolarinin anglatadi, o‘z-o‘zidan ayonki, maromda ham takrorlanish yo‘q. Zerb va marom she’rda mustaqil vazifa bajaradi. Ularning vazifasi ritmni to‘ldirish. Ritmik zerbning xususiyatlari:

1. Ritmning doimiy unsuri;
2. His-hayajon tug‘diradi;
3. Mantiqiy urg‘u oladi.

Ritmik maromga kelsak, u ham ritm atamasini to‘liq almashtira olmaydi. Marom so‘zi me’yor, bir xil o‘lchov ma’nolarini anglatadi. O‘z-o‘zidan ayonki, maromda takroriylik yo‘q. Ritm esa takroriylikka asoslanadi. Marom she’rda tekis harakat bilan bog‘liq.

Ko‘zing qarosining, qoshlaring qaro, 11,a
Yuzlaring oq sening, kulishlaring oq. 11,b

- Muhokama uchun savollar:
- 4.1. Ritm ko‘rinishlarini sanang.
 - 4.2. Zerb va marom atamalariga aniqlanma bering.

Asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Tafsil, timsol va obrazning mushtarak va nomushtarak tomonlarini talabalar bilimiga ko‘chirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 4.1. Tafsil va timsolning ma’nolarini ayta oladi.
- 4.2. Timsol va obrazning mushtarak jihatlarini tishunadi.
- 4.3. Tafsil va obrazning muvozanatini biladi.

Asosiy savolning bayoni:

Ba’zi ilmiy manbalarda obraz bilan timsol o‘rtasiga tenglik alomati qo‘yish holatlari mavjud yoki obraz atamasi o‘rniga timsol so‘zini qo‘llash an’anaga aylanmoqda. Timsol so‘zini nasrda obraz atamasi bilan teng ishlatish mumkin. Ammo nazmda timsol va obraz - alohida-alohida vazifaga ega.

Badiiy timsol she’rda obrazning dastlabki zamini vazifasini o‘taydi, boshqacha aytganda, badiiy obrazning asosi. She’rda avval tafsil (detal), keyin timsol, undan so‘ng obraz shakllanadi. Ular bir-birini to‘ldiradi.

Poetik obraz tafsil va timsol o'rnini bosa oladi. Ammo tafsil va timsol poetik obraz darajasiga erisha olmasligi mumkin.

Turoq, vazn, qofiya, ritmik zarblarning bir me'yorda kelishi ritmik maromni hosil qiladi. U barmoqda ustuvor ko'rinadi. O'lchov, qolip marom uchun xosdir.

Bo'g'inlar tengligi, turoqlarning bir teknda qaytalanishi, ichki va tashqi qofiyalarning tartib bilan kelishi, tavzi' san'atining me'yor bilan o'rinni olishi ritmik maromdir. Ritmik marom tekis ritmik harakatda ko'proq uchraydi.

"O'rik gullaganda", "O'zbekiston", "Birinchi muhabbatim" she'rlarida ritmik marom birinchi rejada turadi.

Qisqasi, poetik obraz va umumiyligi matndan kelib chiquvchi g'oyani anglash va tuyg'uga ko'chirishda ritm va uning ko'rinishlarining xizmati alohidadir.

Lirk sherdagi obrazning o'ziga xosligi ilmda tayin etilgan. Adabiyotshunos B.Sarimsoqovning ta'kidlashicha, poetik obraz "narsa-hodisa ijodkor shaxsning tiyg'usi, hayoli, g'oyaviy niyati bilan qayta idrok etilgan, boyitilgan nusxasi" dir. Badiiy timsol sherdagi badiiy obrazning dastlabki zamini vazifasini bajaradi, boshqacha aytganda, badiiy obrazning tagkursisi. Tagkursi hali uy emas. Tagkursi qanchalik mustahkam bo'lsa, uning ustiga qurilgan uy ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Obraz bilan timsolning munosabati shuning kabitidir.

Ilmdan ayonki, sherdagi avval tafsil, keyin timsol, undan so'ng obraz shakllanadi, aniqrog'i, namoyon bo'ladi. Poetik obraz, timsol va tafsil bir-birini taqozo qiladi. Ular birikib, obrazni to'ldiradi. Ayrim holatlarda timsol va tafsil poetik obrazning o'rnini bosa oldi. Masalaga yanada ravshanlik kiritsak timsol va tafsil uzviy qism, obraz esa umumlashgan hosila.

Tafsilga B.Sarimsoqov shunday aniqlama beradi:

"Poetik tafsil ijodkor tuyg'usi bilan to'yintirilgan bo'lsa ham biroq bu obraz miqiyosida boyitilmaydi va asarda birgina vazifani ado etadi. Aniqroq qilib aytganda poetik tafsil etakchi lirk obrazning muayan qirrasini aniqlab beradi xolos. Binobarin, poetik tafsil va etakchi obraz bir-birini taqozo etuvchi murakkab munosabat hisoblanadi". Bunga Rauf Parfining quydagi uchligi yaqqol misol:

Qaydadir men seni ko'rgandim, daraxt,

Isib ketti ko'zim, omommisani, hey

Suyib erkaladi qo'llarimni u.

Uchlikdagi daraxt tafsillik va timsollikdan obraz darajasiga ko'tarilgan. Chunki unda teran falsafiy ma'no bor. U jonlantirilgan, unda konkret munosabat mavjud, ijtimoiy mazmun ufirib turadi.

Agar daraxt tafsillik yoki timsollik darajasida qolganda, yuqoridagi inson kabi jonlantirilgan daraxt tasviriga ega bo'lmas edik.

Aniqki, tafsil ham timsol ham obrazning birgina qirrasini asoslab yoki jilolantirib kelish bilan o'z vazifasini ado etar ekan.

Obraz, timsol va tafsilning o'zaro hamkorligi she'rning pafosini to'liq ta'minlay olmaydi. Ifodali qilib aytganda, ular she'rning ash'yosidir. Ammo unda hali sehrli ruh yo'q. Bualo tili bilan aytganda, "jarang", Navoiy tili bilan aytganda "dard" (pafos), Fitrat tili bilan aytganda "kishi miyasini titratuvchi kuch" yo'q. Bu "jarang", "dard", "kuch" ni tekis va notekis harakatli ritm hamda uning unsurlari paydo qiladi.

Xurshid Davronning “Saraton”, Abbdulla Oripovning “Saraton” she’ridan shakl, tuzilish, ritmik zarb, marom va maydon jihatidan tubdan farq qiladi. Abdulla Oripovning she’rida tekis harakatli ritm she’rga jarang va sehrli ruh bersa, Xurshid Davron she’riga esa notekis harakatli ritm “jon” bag’ishlagan.

She’rda:

“Bir daraxt bor hovlida - 7

Yolg‘iz” - 2

Kabi ritmik zarb, marom va maydon davom etadi. Sakkiz misralik she’rning har bir satridan so‘ng yolg‘iz so‘zi alohida misra sifatida takror topadi. She’rda saraton obraz darajasiga ko‘tarilgan. Undagi daraxt va qush-timsol. Chunki har ikkisi obrazga tutash, yondosh holda fikrni asoslaydi. Quyosh, bulut esa tafsil. Har ikki tafsil timsol va obrazni oydinlashtirish uchungina xizmat qilmoqda. She’rda karaxtlik davr qalamga olingan. Shu bois daraxt, qush va nihoyat lirik qahramon lol va xazin. Bunday maxzun mavzu va kayfiyatga “yolg‘iz” ritmik zarb alohida tarovat va ma’yuslik baxsh etgan.

G‘oya obrazda shakllanganidek, poetik obraz esa, tafsil va timsolda zuhr topadi.

Xulosa shuki, she’r ritmi matnga muvofiq bo‘lgandagina obrazning ochilmagan qirralari o‘z ifodasiga ega bo‘ladi. She’rning yuksakligi va obrazning etukligi uchun timsol va tafsil qanchalik zarur hamda shart bo‘lsa, unga ritmik harakat ham shunchalik o‘ta muhimdir.

Muhokama uchun savollar:

4.1. Tafsil, timsol atamalari ifodalangan tushunchalarni izohlang.

4.2. Timsol va obraz atamalari bormi?

Adabiyotlar:2(196-205),7(15-30),8(289-294),50(38-46).

5-mavzu: NOTEKIS HARAKATLI RITM

Asosiy savollar:

5.1. Notekis harakatli ritm.

5.2. Oddiy notekeis harakatli ritm.

5.3. O‘rtacha tezlikdagi notekeis harakatli ritm.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Notekis harakatli ritm, oddiy notekeis harakatli ritm, o‘rtacha tezlikdagi notekeis harakatli ritm, g‘oyani keskin o‘zgartiruvchi notekeis harakatli ritm.

Mavzuga oid muammolar:

Notekis harakatli ritmnинг kelib chiqish ibtidosiga munosabat bildiring?

5.1. Asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Notekis harakatli ritmning mazmun va mohiyati, uning she'r ritmini o'zgartirishdagi bazifasini talabalar tasavvuriga singdirish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

- 5.1. Notekis harakatli ritm tabiatini tahlil qilish.
- 5.2. Oddiy notekeis harakatli ritmni tushunadi.
- 5.3. O'rtacha tezlikdagi notekeis harakatli ritmni anglay oladi.

5.1- asosiy savolning bayoni:

Asrimizning 20-30-yillari to'ntarish, o'zgarish yillari bo'ldi. Ijtimoiy dolg'ali voqealar she'r tabiatini va ritmini ham o'zgartirdi. Aruz mustahkam mavqeni barmoqqa bo'shatishga majbur bo'ladi. Hatto barmoqning "temir qonun"lari sindi. Har ikki vaznda zalvorli ijtimoiy siyosiy o'zgarishlarni ifoda etilishi mushkul hol bo'lib qoldi. Natijada barmoqning erkin shahobchasi va undan so'ng sarbast she'r ustuvorlasha boshladidi. Chunki "zamonning ruhi va odamlarning kayfiyati she'riyatning ritmi, ohangida aks etadi" (S.Mamajonov). Shu asnoda notekeis harakatli ritm paydo bo'la boshladidi.

20-30 yillar to'ntarishi, 40-yillar fojiaviy urushlar "turg'unlik" davrining shiddatlari she'r ritmining tekis harakatini hazm qila olmas edi. Bu jarayon notekeis harakatli ritmning tug'ilishiga bois bo'ldi. Uning xossasi quyidagicha:

- ijtimoiy hayotdagi shiddatli va notekeis harakat;
- tarjima tufayli boshqa xalqlar she'riyati ta'siri;
- lirik qaxramon tabiatidagi tub o'zgarish;
- ritmik zarb va ritmik maromning bir nuqtada kesishuvida mantiqiy maydon hosil qilinganligi

Cho'ponning "Ko'ngil" she'ri ana shu o'zgarishlarning natijasida vujudga keldi.

Tiriksan o'lman sen,

Sen-da odam senda inson sen.

Kishan kiyma,

Bo'yin egma

Ki sen ham hur tug'ilgan sen!

Shoir she'rda ko'ngil bilan kishanni qarama qarshi qo'yadi. Erkka intilgan inson zulm ash'yosi kishanni abadiylikka uloqtirib, nest nobud qilib tashlamoqchi. Fikrning o'zi – isyonkor, shiddatli va tug'yonli. Uni oddiy va tekis harakatli ritmda aks ettirib bo'lmaydi. Fikr tug'yonli bo'lganidek, ritm ham shiddatli va keskin bo'lishi shart. Eng avvalo, bo'g'inlar sirasida notekeislik bor. Etti bo'gin to'qqizlikka, to'qqizlik esa birdaniga to'rtlik bo'ginga o'zgaradi. Bu ritmik zarb uchun qilingan. "Kishan kiyma" birinchi zarb, "bo'yin egma" ikkinchi ritmik zarbdir. Lirik qahramon ruhiyatidagi isyonkorlik ritmik zarb, marom va ritmik maydon orqali ifodalanmoqda. Ritmda ana shunday o'zgarish yasalmasa, Cho'pon idealidagi marshni eslatuvchi ta'kid va urg'u topuvchi fikr amalga oshmasligi mumkin.

Qofiya tizimida ham notekeislik bor. Ikkinci misra bilan beshinchi misra qofiyadosh. Uchinchi va to'rtinchi misralar o'zaro to'liqsiz qofiyadosh. Ayniqsa,

ritmik zarbli misralarning o‘zaro qofiyalanishi ham she’r ruhiga shiddatkorlik baxsh etadi. She’rning notejis harakatli ritmi kishanlangan ko‘ngilning dodfaryodi, isyonkor ovozi singari jarang topgan. Fitratning mana bu misralari notejis harakatli ritmnining tabiatini yanada oydinlashtiradi:

Xotinlarning pardasi,	4+3+7
Qarilarning gavdasi,	4+3+7
Yirtilg‘on,	3
Yorilg‘on,	3
Ezilg‘on.	3

Etti bog‘inli va uch, tort turoqli ritm birdaniga uch bo‘g‘inli ritmga qisqaradi. Bu she’riy texnik nuqson emas. Balki suronli davrning isyonkor voqealarini ritmik zarb va ritmik maromda ifodalash uchun atayin shunday qilingan. Keyingi uch ritmik zarb birinchi va ikkinchi misradagi fikrni yanada daxshatliroq chiqishiga qaratilgan.

Fitratning “Sharq” she’rida lirik qahramon iztiroblari o‘z aksini topgan. Har bir davr she’rining vazni turog‘i qofiyasi va ritmidagi o‘zgarish uning band tuzilishiga ham ta’sir qildi. O‘zbek she’riyatida band tuzilishi hatto janr bilan bog‘liq. Endilikda band tuzilishida ham erkinlik paydo bo‘ldi.

Misradagi zar alohida intonatsion musiqiylikni hosil qilgan. Ayonlashadiki 20-30-yillar erkin vaznda she’r yozilishi bilan notejis harakatli ritm o‘ziga hos asnoda paydo bo‘la boshladi.

Davr she’r vazni, voqeasi, urg‘usi va ritmiga ham jiddiy tahrir kiritdi, band tuzilishida ham erkinlik paydo bo‘ldi. O‘zgarishga uchragan ritm uch ko‘rinishga ega bo‘ldi;

- 1) oddiy notejis harakatli ritm; 2) o‘rtacha tezlikdagi notejis harakatli ritm;
- 3) g‘oyani keskin o‘zgartiruvchi notejis harakatli ritm.

Har uchchala tur notejis harakatli ritmga tekis harakatli ritm asosdir.

Muhokama uchun savollar:

5.1. Nima sababdan ritmda o‘zgarishlar bo‘ldi?

5.2. Notejis harakatli ritmni tasniflang.

5.2. Asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Oddiy notejis harakatli ritmnining paydo bo‘lishi va o‘ziga xosligini talabalarga singdirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

5.2.1. Oddiy notejis harakatli ritmni barmoq vazni bilan bog‘lab so‘zlay oladi.

5.2.2. Bo‘g‘in, turoq, qofiyadagi turg‘unsizlikni ayta oladi.

5.2.3. Oddiy notejis harakatli ritm erkin vaznga borib taqalishini tushunadi.

6.2-asosiy savolning bayoni:

Oddiy notejis harakatli ritm notejis harakatli ritmnining mahsulidir. U aslida erkin vaznning bag‘ridan o‘sib chiqadi. Erkin vaznda bo‘g‘in tengligi, turoqning me’yoriyligi va vaznda barobarlik bo‘lmaydi. Bular esa oddiy notejis harakatli ritmnining yuzaga kelishiga asosdir. Notejis harakatli ritm poetik fikrning

shiddatliligi, jo'shqinligini ta'minlaydi. Barmoqning unsurlari to'liq bo'lmasada saqlanadi. Ritm, vazn, band, qofiya va zarbda o'zgarish sodir bo'ladi. Bo'g'inda notekislik, qofiya ohangdorligida to'liqsizlik vujudga keladi.

To'qqiz bo'g'in ettiga, etti bo'gin beshga, besh bo'g'in uch bo'g'inga tushishi qonuniy holdir. "Turksib yo'llarida", "Sen etim emassan" she'rlari bunga yaqqol misoldir.

Barmoq va erkin vazn bag'ridan o'sib chiqqan oddiy notekis harakatli ritm ma'no salmoq dorligi va pafos jarangdorligi uchun xizmat qiladi.

Bu she'riy ritmda Maqsud Shayxzoda shuxrat qozongan.

Muhokama uchun savollar:

- 5.1. Qanday ritmgaga oddiy notekis ritm deyiladi?
- 5.2. Bu nav ritmda she'rning qaysi unsurlarida o'zgarish sodir bo'lgan.

6.3-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:

O'rtacha tezlikdagi notekis harakatli ritm xususiyatlarini talabalarga singdirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 6.3.1. O'rtacha tezlikdagi notekis harakatli ritm xususiyatlarini ocha biladi.
- 6.3.2. Bu ko'rinishdagi ritmning ildizlarini tushunadi.
- 6.3.3. Mazkur ritmning mohiyatini biladi.

6.3-savolning asosiy bayoni:

O'rtacha tezlikdagi notekis harakatli ritm oddiy notekis harakatli ritm bag'ridan o'sib chiqqan. Oddiy notekis harakatli ritm uchun misralardagi qofiya va bo'g'inalr xilma xilligi e'tiborga olinadi. Unda satrlarning uzun qisqaligi, bo'gin notengligi - bosh omil. Har ikkisi bir-biriga o'xshaydi. Farqi shundaki, oddiy notekis harakatli ritm uchun o'rtacha tezlikdagi notekis harakatli ritm unsurlari shart emas.

Jo'shqinlik, shiddatlilik, fikr tug'yoni o'rtacha tezlikdagi notekis harakatli ritmni talab qiladi. Usmon Azim she'rlaridan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Sen uLAYAPSAN,
Derazadan tushgan oy nuri,
Sudralib sudralib
Ko'rpangga yotar.

Ma'lumki, 1-band to'rt misra, 2-band besh misra, 3-band besh, 4-band uch misradan iborat halos.

Hayotda shunday voqealar bo'ladiki, unga bir maromdagagi ritm torlik qiladi. U bir ritmdan ikkinchi ritmgaga o'tib turishni talab qiladi. Aslida bu lirik qahramon ruhiyatiga juda bog'liq. Lirik qahramon ruhiy olami ko'pincha poetik timsol va obraslarda berilishi mumtoz hamda zamonaviy she'riyatdan ayon. Ammo lirik

qahramon ruhiy dunyosi o'rtacha tezlikdagi notekis harakatli ritmda ifodalanishi ko'p sonli misollardan ayonlashadi.

Misol:

Vijdonsiz shoirlar ko'paygan juda,
Yurakni so'z bilan yondiruvchi kam,
Xalqimas,
Shuhratni o'ylab so'ylagan.
Ahmoqqa bermayman qarsagimni ham.
“Xalqimas” so'zida ritmik zarb yuzaga qalqib chiqqan.

O'rtacha tezlikdagi notekis harakatli ritm g'oyani keskin o'zgartiruvchi notekis harakatli ritm oddiy va o'rtacha tezlikdagi notekis harakatli ritmdan ritmik zarb, ritmik maydonning etakchiligi bilan farq qiladi. Shu bilan birga undan anaphora va tazod muhim qol o'ynaydi. G'oyani keskin o'zgartiruvchi notekis harakatli ritmnинг o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

1. Bandlardagi misralar tengligining saqlanmasligi;
2. Ritmik zarb etakchi o'rinni tutishi;
3. Ritmik maydonning imkoniyati kengayishi;
4. Qofiya deyarli rol o'ynamasligi va h.k.

Fikrimizni Tilak Jo'raning “Uyalaman” she'ridagi ritm oqimi to'liq tasvirlaydi.

Qaltirab qizarar g'o'zapoyalar,
Uyalib,
Yalang'ochligidan,
Titrab turar puchak ko'saklar
Uyalib,
Kechikkanidan.
Bunday yupun dalaga boqib
Po'stanim borligidan
Uyalaman men.

Misolni g'oyani keskin o'zgartiruvchi notekis harakatli ritm talabiga solib ko'raylik. Birinchidan, misradagi turoqlar noting, ikkinchidan tizimli va ohangdosh qofiyalar yo'q, uchinchidan, dastlabki uch misrada lirik qahramon uchinchi shaxsda fikrlay turib, keying misralarda birinchi shaxs “men”ga o'tadi. Shu nuqtaning o'zida jiddiy o'zgarish payqaladi, to'rtinchidan ritmik zarb – “uyalib” misralar o'sha ritmik maydonni hosil qilgan. Ko'rinadiki misolimiz na oddiy, na o'rtacha tezlikdagi notekis harakatli ritmga o'xshaydi. Misoldagi g'oyanining keskin o'zgarishi nimalarda ko'rindi? Eng avvola jonsiz tabiat lirik qahramon ruhiyatiga kochiriladi. Tabiatdagi g'o'za - yalang'och, ammo lirik qahramon po'stinda. G'oyanining zuhur topishida notekis harakatli ritm muhimomil bo'lgan. Unda “uyalaman” ritmik zarbdir. G'ozapoya, puchak ko'sak, yupun dala, po'stin badiiy tafsillardir. “uyalib” “uyalib” va nihoyat “uyalaman men” ritmik zarblarning takrorlanishi ritmik maydonni tashkil qilgan. Tabiat holatining lirik qahramon qiyofasiga muqayosa qilinishi g'oyanining tez o'zgarishiga olib kelgan.

Qisqasi, davr g'oyalarning shiddatli, tug'yonli va dolg'ali ko'rinishlari ifodasiga notekis harakatli ritm nihoyatda uzukka ko'z qo'ygandek mos tushgan.

Muhokama uchun savollar:

- 5.3.1. O‘rtacha tezlikdagi notekis harakatli ritm xususiyatini aytинг.
- 5.3.2. Qanday vositalar o‘rtacha tezlikdagi notekis harakatli ritmni talab qiladi?
- 5.3.3. G‘oyani keskin o‘zgartiruvchi notekis harakatli ritmning etakchi xususiyatlarini sanang.

Adabiyotlar: 2(196-205), 7(15-30), 8(289-294), 50(38-46).

Mavzuga oid mazkur misolni izohlang:

1. Ey sabo holim borib sarvi hiromonimga ayt,
Yig‘larimning shiddatin gulbargi handonimga ayt.
2. Qarsak nima o‘zi
Ikki kaft
Orasida portlab chiqqan sas.
Xoxlasam chalaman xoxlamasam yo‘q,
Qarsak o‘simniki sizniki emas.

6-mavzu: BALOG‘AT (KALOMI BADE’) VOSITALARI

Asosiy savollar:

- 6.1. Nazmda milliy til boyligining o‘rnini.
- 6.2. Tasviriy-ifodaviy vositalar (amonim, sinonim, antonim, arxaizm, neologizm, jargon, dialekt, professionalism).
- 6.3. Nazmda so‘z mantiqi va poetik mantiqi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Milliy til boyligi, tarixiy, eskirgan va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar, dag‘al so‘zlar, argotik va jargon so‘zlar, badiiy til, muallif va personaj nutqi.

Mavzuga oid muammolar:

Nazmda so‘z va poetik mantiqning o‘zaro aloqasiga munosabat bildiring.

6.1-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Nazmda so‘z o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, poetik obrazlilik hosil qilishini talabalar tasavvuriga singdirish.

Indentiv o‘quv maqsadlari:

- 6.1. Nazm milliy til boyligiga asoslanishini tushunadi.
- 6.1. Badiiy til va uning xususiyatlarini tushunadi.

6.1- asosiy savolning bayoni:

Nazmiy nutq milliy til boyligiga asoslanadi. Til badiiy shakl yaratishning universal vositasi bo‘lib maydonga chiqadi. (I.Sulton). Til- badiiy libos. Tili buzuq asar so‘zi buzuq cholg‘u kabitdir.

Ijod jarayoni va badiiy komponentlar til orqali namoyon bo‘ladi. Ba’zida xalq tili muhim omil sanaladi. Xalq tili ba’zan jonli til ham deyiladi. U gaplashuv til, adabiy til va badiiy tilni o‘z ichiga oladi.

Jonli til: 1) imo-ishora; 2) yuz-ko‘z harakatlari; 3) gap ohangi bilan ham zuhur topishi mumkin. Yozuvchi tili adabiy til hisoblanadi. Ayni vaqtida adabiy til bilan badiiy til ham farq qiladi.

Badiiy til bo‘yoq dor, sodda, ifodali va obrazli bo‘ladi. O‘rni bilan badiiy til gaplashuv va adabiy tilni ham qamrab oladi.

Badiiy til: badiiy asarda ikki nutq ishtirok etadi: 1) muallif nutqi; 2) personaj nutqi.

Muallif nutqi asarning katta - kichik qismini bog‘lab turuvchi omildir. Unga emotsiyonallik hos. Personaj nutqi - badiiy nutq. U asar qaxramonini shakllantiradi. Saviya tadrijini ta’mindan etadi. Har qanday asar – tarixiy - adabiy jarayonning mahsuli. Shuning uchun ham tilda uning barcha qatlamlari - so‘zlar ishtirok etadi. Bu jarayon she’riy asarlarga ham mutlaqo hos.

G‘.G‘ulomning “Men yaxudiyman”, E.Vohidovning “O‘zbegim” she’rlarida tarixiy, H.Olimjonning “O‘zbekiston”, A.Oripovning “Genetika” she’rlarida zamonaviy so‘zlar lirik qaxramon nutqi ziynatlagan

Fuzuliy:

Mendan, Fuzuliy, istama ash’ori madhu zamm,
Man oshiqam hamisha so‘zum oshiqonadur,
deganda so‘zni mavzuga qarab qo‘llashga ishora ham qilgan. Baytda milliy til boyligidan tashqari ajnabiy til unsurlari ham bor: ash’or-asar, madh-maqtov, zamm-qo‘shish va h.k.

“Sajiyadagina emas surat va siymo vajida ham katta o‘zgaliklari bor edi”. Ushbu jumla A.Qodiriy nutqi. Birgina jumlada Hushro‘y va Zaynab sajiyalari farqlanadi. Ularning ikki qutbdagi sajiyalari ajrim qilinadi. Ayni vaqtida muallif nutqi ta’sirchan ham. “Surat va siymo vaji” jumlesi ifodalilikka dahldor. “O‘zgaliklari” so‘zi esa Qodiriy uslubiga xos yangicha so‘z ko‘rinishidir.

“Bu muhokamang to‘g‘ri. Ammo otangni ham shu jonivorlar orasiga qo‘shib o‘ltirishing qisqaligingdandir!” dedi Yusufbek hoji.

Personaj nutqi-badiiy nutq. Yusufbek hoji nutqidagi “jonivorlar” so‘zi o‘ta kesatiq, dag‘al so‘z bo‘lsada, qorachoponlilarning rahbarlarining johil va kaltafahmlilagini yanada oydinlashtiradi. Boz ustiga “qisqaligingdir” so‘zi hojiga xos andisha bilan so‘zlovchi oily martabali kishi nutqidir. Hoji-o‘ta andishali inson. Hoji o‘g‘lining fikrini to‘mtoq, ”kaltafahmlik” deyish mumkin edi. Ammo u bunday demay, farosat bilan “qisqaliging” deb qo‘ya qoladi. Bu hoji tilining o‘ya nafis va nazokat tomoni.

Personaj tili asar qaxramonini shakllantiradi. Sajiya tadrijini ta’mindan etadi. Har qanday asar – tarixiy - adabiy jarayon mahsuli. Shuning uchun ham unda tilning barcha qatlamlari so‘zlar ishtirok etadi. Tarixiy-adabiy jarayonni aynan ifodalash uchun ham tarixiy so‘zlarni qo‘llash shart.

Muhokama uchun savollar:

- 6.1. Milliy til boyligiga tilning qaysi qatlamlari kiradi?
- 6.2. Nazmiy til-badiiy “libos” (til) deganda nimani tushundingiz?

6.2-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi

Nazmda so‘zning o‘z (betaraf) va ko‘chma ma’nosini talabalar bilimiga ko‘chirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 6.2.1. Nazmda so‘zning ko‘chma ma’no olish xususiyatini bilib oladi.
- 6.2.2. So‘zning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi poetik obrazga zamin ekanligini tushunadi.

6.2-asosiy savolning bayoni:

So‘z o‘zicha matndan holi ravishda atamalik xususiyatga ega holos. Matnsiz so‘zning badiiy bo‘yoq dorligi haqida fikr bo‘lishi mumkun emas. So‘zning badiiy bo‘yoq olish usuli - ko‘chim. So‘z turli belgi hususiyatga, mohiyatga qarab o‘z ma’nosi ko‘chadi. “Yuzung guliga ko‘ngul ravzasidin yasa gulshan” misrasidagi gul va ravza so‘zleri matndan tashqari atamalik xususiyatiga ega. Gul oddiy o‘simlik bo‘lib, ravza ilohiy tushuncha - jannatni bildiradi. Har ikki so‘z matn zamirida ko‘chim amalga oshgani uchun gul ma’shuqa yuzi, ravza oshiq ko‘ngil ma’nosini anglatmoqda. Misolda gul o‘xhashlikka, ravza mohiyatga ko‘ra ko‘chim bo‘lib kelmoqda.

Qisqasi so‘zning ko‘chma ma’noga aylanishi poetik obrazning shakllanishi va zuhur topishiga asosdir.

So‘z boshqa so‘zlar bilan aloqaga kirishib yangi ma’no kasb etadi. Yoki badiiy jilo topadi. Masalan: “Qaro ko‘zum” birikmasida “qaro” rang, “ko‘zum” inson andomi ma’nosini bildiradi. Ular birikib esa yor ma’nosini anglatadi.

So‘z “surat” chizadi. So‘z qalb manzaralarini kashf qiladi. So‘z-soz tovush (Belinskiy.) she’rda so‘z tasviriylik, ifodalilik, ta’sirdorlik va kechinma-tuyg‘uni uyuşturadi.

Tarixiy, eskirgan so‘zlar:

Muhabbat lazzatidan behabardur zohidi g‘ofil,
Fuzuliy ishq zavqin zavqi-shavqi vor o‘landin so‘r.

Zohid- tarixiy so‘z. Hozirda shu toifadagi shaxsning o‘zi yo‘q.

Eskirgan so‘z: vor-bor ma’nosida, o‘lan shakl o‘zgargan, aslida bo‘lgan ma’nosida kelmoqda.

Agar on turki Sheroz badastorad dili moro,

Ba holi hinduyash baxsham Samarqandu Buhororo.

(Hofiz).

Dag‘al so‘zlar: “nomimni tilingga olma, e olchoq”

(G‘.Gulom).

Kasb-hunarga oid: rasadkim bog‘lamish zebi jahondir,

Jahon ichra yana bir osmondir.

(Navoiy).

Maqol:

Ayog‘ingga tushar har lahza gisu
Masaldurkim; “charog‘ tubi qorong‘u.

(Lutfiy)

Aforizm:

Tilga ixtiyor sиз
Elga e’tiborsiz.

(Navoiy)

Vafosizda hayo yo‘q
Hayosizda vafo yo‘q.

Muhokama uchun savollar:

- 6.2.1. So‘zning betaraf ma’nosini qanday tushundingiz?
- 6.2.2. So‘z qanday usullar bilan ko‘chma ma’noga aylanadi?

6.3-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

So‘z mantiqi va poetik mantiq tushunchasini talabalar idrokiga singdirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 6.3.1. So‘z mantiqi va poetik mantiqqa aniqlama bera oladi.
- 6.3.2. Poetik mantiq badiiy fikrlashning o‘ziga hos shakli ekanini biladi.
- 6.3.3. Poetik mantiq bo‘yicha misol ishlay oladi.

6.3-savolning asosiy bayoni:

Nazmda so‘z mantiqqa asoslanadi. Poetik mantiq - bosh mezon. Matiqsizday tuyulgan fikr poetik tasvir doirasida kuchli mantiqlanadi.

Ishqing tog‘lar aro go‘zal ohudir,
O‘tsam- dilporaman, otmasam dilkun.

(A.Oripov)

Baytdagi so‘zlar vositasida anglashilgan fikr bunday qarasangiz mantiqsizday ko‘rinadi. Ammo poetiklashganda mantiq kuchini ko‘rsatadi. Ishq - tog‘ ohusiga qiyos. Undan poetik ma’noni tushirib qoldirsangiz mantiqsizlik shundaygina seziladi. Unga shartli, ramziy, mumtoz she’riyat timsollari nuqtayi nazaridan yondashilgan sari poetik mantiqdan ogoh bo‘lamiz. Chunki ishq tutqich bermas - orzu, maqsad. Tog‘ ohusi ham shuning kabidir.

Ikkinchi bayt ham poetik mantiqqa asoslangan. O‘tsa ko‘ngli yaralanadi, o‘tmasa ko‘ngli buziladi. O‘tsa ishq - ohu jarohatlanadi. Poetik mantiq nihoyatda kuchli chiqqan. Poetik mantiq mumtoz she’riyatda ham bahsu munozaraning muhim manbayi bo‘lgan. Adabiy anjumanda Lutfiy, Navoiy va Husayn Bayqarolarning amir Husrav Dehlaviyning tashbehi borasidagi bahslari bunga yaqqol misoldir.

Yomg‘ir yog‘ayotganda ma’shuqa sirpanib tushadi va yog‘ayotgan yomg‘ir rishtasini ushlab turadi. Buni Lutfiy va Navoiy eng mumtoz tasvir, nazmiy timsol deb baholaydilar. Ammo anjuman ishtirokchisi Husayn Bayqaro:

“Rishtakim mayli kuyi bo‘lg‘ay, oning madadi birla yiqadurg‘on o‘zni asramog‘i amrimaholdir”, - deydi.

Muhokama uchun savollar:

- 6.3.1. So‘z mantiqi va poetik mantiqqa tushuncha bering.
- 6.3.2. A.Oripov baytidagi poetik mantiqni izohlang.

Adabiyotlar: 2(156-208), 8(195-207), 50(8-16).

Mavzuga oid mazkur misolni izohlang:

Elqanot, elquvar, eldirim, elmoyam,
Eb to‘ymas elmoyalardek erman emas Elmoya!

(Murod Hidir)

7- mavzu: NAZMIY ASAR (SHE’R) TAHLILI ME’ZONLARI

Asosiy savollar:

- 7.1. Nazmiy tahlil haqida qarashlar va uning tasnifi.
- 7.2. She’r tahlili mezoni unsurlari.
- 7.3. Lirik qahramon masalasi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

She’r tahlili mezoni, she’r tahlili tasnifi, lirik qahramon.

Mavzuga oid muammolar:

She’r tahlili mezonlarining qomusiy, ta’limiy turlari haqida sizning qarashingiz?

7.1- asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Nazmiy asar tahlili ko‘rinishlarini talabalar bilimiga ko‘chirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 7.1. Nazmiy asar tahlili mezonining ilmiy ko‘rinishi bo‘yicha tasavvur paydo qiladi.
- 7.2. Ommaviy va qomusiy tahlilning bir-biridan farqini biladi.
- 7.3. Ta’limiy tahlil mezoni idrok etadi.

7.1- asosiy savolning bayoni:

She’r tahlili mezoni turlari haqida xilma-xil qarashlar mavjud. Shundan hozircha to‘rttasi ilmda qabul qilingan: a) ommaviy; b) ilmiy; v) qomusiy; g) ta’limiy.

She’r tahlilining ilmiy ko‘rinishi u yoki bu muammoning echimiga bag‘ishlangan masala bilan bog‘liq. Agar ilmiy mavzu qofiya va shaxsiy uslub bo‘lsa, G‘.G‘ulom, H.Olimjon va Uyg‘un she’riyatining qofiya tizimi va uning shaxsiy uslubdagagi mavqeい tahlil qilinadi. Ya’ni ilmiy mavzu qaysi muammoga

bag‘ishlansa, she’r ham ana shu mavzuga moyil tahlil qilinadi. Bundan tashqari qofiya haqida tadqiqot qilinar ekan, qofiyaning mumtoz shaklidan tortib erkin vazndagi to‘liqsiz qofiyagacha ilmiy chuqur va har tomonlama isboti bilan tahlilu talqin etiladi.

Masalan, ohu-suv qofiyadosh so‘zlari mumtoz qofiya qonuniyatida nuqsonli yoki qofiyasida «aybg‘inası» bor hisoblanadi.

Tahlilning ta’limiy, ya’ni dasturlashgan ta’lim ko‘rinishi o‘ziga xosdir. Bunda ta’lim mavzusi va talabi asosiy rol o‘ynaydi. Ta’lim dasturi bo‘yicha G‘.G‘ulomning «Sen etim emassan» she’riga bir necha xil yondashish mumkin: shoir tarjimai holini sharhlaganda; urush yillari o‘zbek adabiyoti mavzusini o‘tishda; erkin vazn nazariyasi o‘rganilganda bevosita mazkur she’r tahlilga tortiladi va undan misollar keltiriladi.

Muhokama uchun savollar:

- 7.1.1. Nazmiy asar tahlil turlarini sanang.
- 7.1.2. Nazmiy asar tahlilining ilmiy va ta’limiy ko‘rinish(lar)ini gapirib bering.

7.2 – asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Nazmiy asar tahlili mezoni unsurlari haqida talabalarda tushuncha hosil qildirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 7.2.1. Nazmiy asar tahlili mezonlarini tasniflay oladi.
- 7.2.2. Nazmiy asar tahlili mezonlaridan biri lirik qahramon haqida to‘liq tasavvur paydo qiladi.
- 7.2.3. Nazmiy asar tahlili mezoni - an’ana va nuqtasanjlik borasida tushunchaga ega bo‘ladi.

7.2- asosiy savolning bayoni:

She’rshunoslikda nazmiy asar tahlili mezoni unsurlari quyidagicha (albatta nisbiy) belgilangan: a) she’r mavzusi; b) g‘oyaviy yo‘nalishi; v) falsafiy asoslari; g) lirik qahramon; d) an’ana va nuqtasanjlik; e) badiiy xususiyatlari; j) zamonaviyligi; z) she’riyat taraqqiyotidagi o‘rni.

Agar bordiyu tahlilga tortilayotgan she’r yoki g‘azalning yozilish tarixi aniq bo‘lsa, tahlilni ana shundan boshlash ma’qul. Bunga Boburning «Qoldimu?» radifli g‘azali yaqqol misoldir. Mazkur g‘azalning bosh va yordamchi mavzulari ham bor. Gardun va falakdan ozorlanish, nihoyat bu dunyoning safosi qolmaganidan u dunyoni istab qolish kabi ilova fikr-mavzu ohanglari ishq otashida yonib, omadi kelmagan oshiq ruhiyatini chizishda qo‘l kelgan.

Inson va dunyo muammolari shoir g‘azalining falsafiy asosini tashkil qilgan. Falak, charx, dahr, gardun kabi falsafiy timsollar shoir dunyoqarashini ifodalaydi.

Oshiqning omadsizligi, ma’shuqaning jabru jafolari dunyo muammolari bilan bog‘lanib ketganini shoir chuqur iztiroblarga berilib kuylaydi. Shulardan g‘azalning g‘oyaviy yo‘nalishi ham anglashiladi. Ishqda ahdu vafo va sadoqat g‘azalning g‘oyaviy yo‘nalishidir. Zikrimizdagi g‘azalda Bobur falsafasi bilan sharq falsafasi qorishib ketgan.

G‘azalda mavzu, tasviriy vositalar, janr, vazn va badiiy san’atlar an’anaviyligi saqlangan. Shu bilan birga u Navoiyning «Soqyo, men yutmag‘on xunobu hijron qoldimu?» g‘azaliga tatabbu’ tarzda yaratilgan. G‘azaldagi ohoriy poetik timsollar uning an’anaviy va nuktasanjlik jihatini ta’minlagan.

Muhokama uchun savollar:

- 7.2.1. Nazmiy asar tahlili mezonlarini tasniflang.
- 7.2.2. Boburning «Qoldimu?» g‘azalining mavzusi, falsafiy g‘oyasi, an’ana va nuktasanjligini tushuntiring.

7.3 – asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Talabalarda lirik qahramon va uning ko‘rinishlari haqida tasavvur hosil qildirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 7.3.1. Lirik qahramon tushunchasini asar qahramoni atamasidan farqlay oladi.
- 7.3.2. Shoир lirik qahramon bo‘lish bo‘lmashagini ajrata biladi.
- 7.3.3. Lirik qahramonning ko‘rinishlarini sanaydi.

7-3-asosiy savolning bayoni:

50-yillar she’r ilmida lirik qahramon masalasi ilmiy bahsning boisi bo‘ldi. Bir guruh olimlar – lirik qahramon shoirming o‘zi deyishsa - ikkinchi guruh olimlar esa lirikada qahramon «u», «men», «sen», «biz», «siz» shaklida ham ifodalanishini qayd qiladilar. Ayrim lirik asarlarda shaxs va shaxslarning umumlashgan obrazi ham o‘rin oladi. Bu lirik personaj deyiladi. Shoirning «meni» tufayli muallif shaxsini lirik qahramon deyish ham unchalik to‘g‘ri emas. Shu bilan birga «men»da shoir shaxsi ham yotishini unutmaslik kerak. To‘g‘ri, lirik qahramon shoir tasavvur va kechinmasi orqali yaratiladi. Buyuk Belinskiy ta’biri bilan aytganda, lirika «sub’ekt» (shoir shaxsi) orqali o‘tadi. Aslida lirik qahramon bir oniy his-tuyg‘uning lirik badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Lirik qahramon surat va siyratini kashf qilishda poetik tafsil, timsol va obraz bosh tayanchdir.

Portret yaratilgan boshqa she’rlarda aniq lirik personaj, peyzaj lirkasida tabiat va uning ko‘rinishi lirik poetik obraz bo‘lib kelishini ham nazardan qochirmaslik kerak.

Muhokama uchun savollar:

- 7.3.1. Lirik qahramon shakllarini sanang.
- 7.3.2. Lirik «men»ni tushuntiring.

Adabiyotlar

Boboev T “Adabiyotshunosli asoslari” (459-519),
Radjabov D “Badiiy obraz va ritm tabiat” (250-257),
To‘ychiev U “O‘zbek poeziyasida aruz sistemasi” (222-228).
Xayitmetov A “Shark adabiyotining ijodiy metodi tarixidan”(113-125)

8-mavzu: LIRIK TARH (KOMPOZITSIYA)

Asosiy savollar:

- 8.1. Lirik tarh atamasi va uning ta'rifi.
- 8.2. Lirik tarh tasnifi.
- 8.3. Tarh unsurlari.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Lirik tarh, lirik tarh ta'rifi, lirik tarh unsurlari, tarh komponenti.

Mavzuga oid muammolar:

Lirikada syujet va kompozitsiyaning munosabatini qanday tushunasiz?

8.1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:

Tarh haqida nazariy tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 8.1. Lirik tarh ta'rifini ayta oladi.
- 8.2. Lirik tarhni tasniflay biladi.
- 8.3. Lirik unsurlarni misollar vositasida anglaydi.

8.1-asosiy savolning bayoni:

«Asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblik kompozitsiya, deb ataladi» (I.Sultonov, Adabiyot nazariyasi, 1980 y. 188-bet). Asarning kompozitsiyasini tashkil etuvchi turli qismlar komponent deyiladi.

Kompozitsiya komponenti birikmasining o'rniga tarh unsuri birikmasini teng tushuncha sifatida qo'llash mumkin. Masalan, syujet garchandki, o'zi mustaqil ravishda asar voqeasini uyushtirsa-da, kompozitsiyaga nisbatan komponent – unsur hisoblanadi.

L.Tolstoy fikricha, tarh badiiy asar markazini tayin etishdan boshlanadi. Tarh adabiy tur va janrlarga ko'p jihatdan bog'liq. Shu ma'noda u lirik janrlarda o'zini alohida namoyon qiladi.

Shoir va adabiyotshunos Jamol Kamol o'tmish lirikada kompozitsiya so'zi istiloh sifatida uchramaydi (uning kitobi, 65-bet) degan fikrda.

Aksincha, o'tmishda «tarh», «andoza» so'zları kompozitsiya istilohi ma'nosini bergen. Ulug' Navoiy tarhni kompozitsiya ma'nosida qo'llagani ma'lum.

«Farhod va Shirin» dostoni haqida gapirib: «Ani nazm etki, tarhi toza bo'lg'ay, ulusga mayli beandoza bo'lg'ay», deya yozilajak asar tarhining yangiligi va kitobxonga manzur bo'lishini ehtirom bilan ta'kidlagan.

Kompozitsiya borasida Aristotel, Bualo, Belinskiylar aniq izohlar bergen. Belinskiy: «Har bir belgi, har bir obraz zaruriy va o'z o'rnida bo'lishi lozim» degan. Shuningdek, M.Qo'shjonov, boshqird adabiyotshunosi N.Ahmedziyanovlar ham o'z fikrlarini bildirganlar. Olimlarning barcha fikrlarini umumlashtirsak, u L.Tolstoyning tarhga bergen aniqlamasiga mos keladi.

Muhokama uchun savollar:

- 8.1.1. Tarh atamasiga aniqlama bering.

8.1.2. Tarhni ta'riflang.

8.2-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:

Talabalarning lirik tarhning tasnifi bo'yicha tushunchalarini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

8.2.1. Lirik tarh tasnifini keltira oladi.

8.2.2. His-tuyg'ular tadrijiga asoslangan lirik tarh tabiatini tushunadi.

8.2.3. Voqeaband lirik she'r tarhini misol asosida sharhlaydi.

8.2-asosiy savolning bayoni:

Rus adabiyotshunosi V.Ivanisenko lirik tarhni shartli ravishda to'rtga tasniflaydi.

Bir guruh she'rlarda fikr va tuyg'ular bir necha bosqichni bosib o'tadi, har safar ma'lum ma'noda sifat o'zgarishlarga uchraydi.

Bir guruh she'rlar birligina his-tuyg'uning tadrijiy rivojlanib borishiga asoslanadi.

Yana bir tip she'rlarda voqeabandlik muhim o'rin tutadi. Tarh voqealasiga quriladi.

Portret va peyzaj tasviriga bag'ishlangan she'rlarning lirik tarhi bosqichma-bosqich o'sib boradi.

Shundan I-III guruh she'rlar tarhiga to'xtalamiz.

Aslida lirik she'r – bir oniy his-tuyg'uning hosilasi.

H.Olimjonning «O'rik gullaganda» she'rida bir oniy his-tuyg'u o'z ifodasini topgan. Gul – tafsil va timsol. U bir oniy tuyg'u hosilasi sifatida poetik obraz darajasiga ko'chgan. Hech gul ko'rmay o'tganlar bugun «gul» ko'rgan, shu o'lkada tolening mo'lligi, bahor shu diyorda hamishalikka qolishi haqida voqelik emas, balki poetik tuyg'u vositasida ifodalangan.

Lirik kechinma muayyan tuyg'ular tadrijidan so'ng yana o'sha oldingi bayt bilan yakunlanadi. Oniy tuyg'uga oppoq o'rik guli turtki bo'lган.

A.Oripovning «Birinchi muhabbatim» she'ri ham xuddi shunday bir oniy his-tuyg'uning natijasi o'laroq yaratilgan. His-tuyg'uni jumbushga keltirgan. Demak, bu guruh she'rlarga biror voqealasiga hodisa turtki bo'ladi.

M.Gorkiy: «Men she'rlarning syujetli, konkret-tarixiy mazmunga ega bo'lishining qizg'in tarafboriman» degan edi. Fanda bu kabi fikrlar yashab kelsada, 1956 yil «O'zbekiston madaniyati» ro'znomasida voqeaband lirika borasida bahs ketdi. Ba'zi olimlar voqeaband lirikani mutlaqo inkor etdilar.

A.Oripovning eng yaxshi asarlari sirasidan voqeaband she'rlari ham mustahkam o'rin olishi bu tip she'rlarning hayotiyligini yana bir karra tasdiqlaydi («Tilla baliqcha», «Darboz»).

Muhokama uchun savollar:

8.2.1. Adabiyotshunos V.Ivanisenkoning lirik tarh haqidagi tasnifini keltiring.

8.2.2. Bir oniy his-tuyg'uga asoslangan she'r tarhini izohlang.

8.3-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:

Talabalarda lirik tarh unsurlari haqida tasavvur paydo qilish.

8.3-asosiy savolning bayoni:

She'r ritmi, bayt, qofiya, radif, anafora, epifora, hatto tovush qaytariqlari lirik tarhni uyuştirishda ayrica xizmat o'taydi. Bayt va band lirik tarhning etakchi unsurlaridir. Bayt misralar orasida naqorat bo'lib kelishi yoki boshlanma bayt yana xotima bayt bo'lib kelishi lirik tarh talabidir. H.Olimjonning «O'rik gullaganda» she'rining birinchi bayti so'nggi – xotima bayt bo'lib qaytalanishi aylanma kompozitsiya – tarh deyiladi. G'azaldagi shu holat–raddul matla', deb yuritildiki, avvalgi fikr g'azalning so'nggi matla'sida takrorlanadi.

Lirik tarhda qofiyaning mavqeい ayrichadir. V.M.Jirmunskiy: «Qofiyaning mohiyatli belgisi – uning kompozitsiya yaratish funktsiyasi» desa, L.I.Timofeev esa qofiyaning ko'proq she'riy bandlarni uyuştirishdagi rolini ta'kidlaydi.

Qisqasi, barcha milliy adabiyotshunos olimlar ham qofiyaning tarhni uyuştirish funktsiyasini e'tirof etganlar. Ichki qofiya va raddul qofiya bayt va band tarhini uyuştirishda alohida vazifa bajaradi.

Raddul qofiya misralar qofiyasining uchinchi yoki to'rtinchisi bo'lib qaytalanishidir. Qofiyaning qaytalanishi fikrning tadrijiy rivoji garovidir. Bunga buyuk Navoiy g'azallaridan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Muhokama uchun savollar:

8.3.1. Lirik tarh unsurlarini sanang.

8.3.2. Lirik tarhda bayt, band, anafora va epiforaning xizmatini ayting.

Adabiyotlar:

Boboev T "Adabiyotshunosli asoslari" (459-519),

Radjabov D "Badiiy obraz va ritm tabiatı" (250-257),

To'ychiev U "O'zbek poeziyasida aruz sistemasi" (222-228).

Xayitmetov A "Shark adabiyotining ijodiy metodi tarixidan", – Toshkent 1978 yil.

9-mavzu: KICHIK LIRIK JANRLAR POETIKASI

Asosiy savollar:

9.1. Fard janri poetikasi.

9.2. Tuyuq janri poetikasi.

9.3. Ruboij janri poetikasi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Kichik lirik janr, fard, tuyuq, ruboij.

Mavzuga oid muammolar:

Fard yozilajak g'azalning matla'si deyiladi, bunga sizning fikringiz.

Ruboij turkiy nazmdagi to'rtlikdan kelib chiqqan, degan qarashga munosabat bildiring.

9.1-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Kichik lirik janrlar poetikasi bo‘yicha bilim berish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 9.1. Fard janri haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘ladi.
- 9.2. Tuyuq janri poetikasini anglay oladi.
- 9.3. Ruboioining tarhini farqlaydi.

9.1-asosiy savolning bayoni:

Sharq she’riyatida kichik lirik janrlar nihoyatda ko‘p. Birgina Navoiy o‘n oltita lirik janrlardan foydalangan.

Mumtoz she’riyatda ikki misradan o‘n misragacha bo‘lgan she’rlar maxsus janrlarni tashkil qiladi va ular alohida nomlanadi. Shundan fard, tuyuq va ruboiy janrlari poetikasi bo‘yicha to‘xtalamiz.

Fard (arabcha-yakka, yolg‘iz ma’nosida) bir baytdan iborat eng kichik mumtoz lirik janrdir. U tugal poetik ma’noga ega bo‘lib, masnaviy shaklida qofiyalanadi. Har ikki misra bir - biriga mazmunan va tarh jihatdan nihoyatda mustahkam bog‘langan bo‘ladi. Uning uch turi mavjud: mufradot fard, tajnisli fard, oddiy fard.

Mufradot fardga:

Bu gulshan ichraki, yo‘q baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot.

Saodat so‘zidan ot chiqsa, Sa’diy ismi kelib chiqadi.

Fard shoir mahoratini namoyish qiladigan eng mo‘jaz lirik janrdir. Ulug‘ Navoiy bu janrda 86 fard yozgan.

Navoiy fard atamasi bilan birga bayt so‘zini ham qo‘llaydi. Fard – g‘oyaviy mavzuviy jihatdan didaktik va falsafiy yo‘nalishga ega. Garchand, fard mustaqil janr bo‘lsa-da, epik asarlar to‘qimasiga kirib, qissadan hissa chiqarish vazifasini ham o‘taydi. Fard zamonaviy she’riyatda ham uchraydi.

Muhokama uchun savollar:

- 9.1.1. Fard lirik janriga aniqlama bering.
- 9.1.2. Fard janrini tasniflang.

9.2-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Talabalarning tuyuq janri bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 9.2.1. Tuyuq haqida Navoiy va Bobur ta’riflarini keltira oladi.
- 9.2.2. Tuyuqning xalq og‘zaki ijodi va mumtoz she’riyatdagi ko‘rinishlarini farqlay biladi.
- 9.2.3. Tuyuq qofiyasining tajnis bo‘lishini aniqlaydi.

9.2- asosiy savolning bayoni:

Tuyuq so‘zi tuslash va tuymoq ma’nosini anglatadi. U atama sifatida XIV va XV asrlarda qo‘llanila boshlagan. Tuyuq-qadimgi turkiy xalqlar she’riyatining

lirik janri. Uning kelib chiqishi qadim turkiy to‘rtliklarga borib taqaladi. Keyinchalik mumtoz she’riyat ta’sirida aruz va mumtoz qofiya tizimida yoziladigan bo‘lgan. Unda ulug‘ Navoiy «Birisi, «tuyuq»turkim, ikki baytda mukarrardur va sa’y qilurlarkim, tajnis aytilg‘ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundoqkim»:

Yorab ul shahdu shakar yo labmudur,
Yo magar shahdu shakar yolabmudur,
Foilotun foilotun foilotun
Jonima payvasta novak otqali,
G‘amza o‘qin qoshig‘a yolabmudur.
Foilotun foilotun foilotun.

Mirzo Bobur ham «Risolai aruz» kitobida tuyuqqa mukammal baho beradi.

Tuyuq turklarda ma’ni, turkmanlarda la’li, ozarlarda bayot deb yuritiladi.

Mumtoz adabiyotda Burhoniddin Sivasiy, Lutfiy, Navoiy, zamonaviy adabiyotda Habibiy, Charxiylar tuyuq ijod qilganlar.

Muhokama uchun savollar:

- 9.2.1. Tuyuqning qofiya xususiyatini sharhlang.
- 9.2.2. Tuyuq haqida Navoiy aniqlamasini keltiring.

9.3-asosiy savol bo‘yicha darsning maqsadi:

Talabalarning ruboiy bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

- 9.3.1. Ruboiy janrining axloqiy-falsafiy xususiyatlarini anglay oladi.
- 9.3.2. Ruboioyning vazni va qofiyasini farqlaydi.
- 9.3.3. Ruboioyning tarh xususiyatini Bobur ruboiysi misolida tushuntira biladi.

9.3-asosiy savolning bayoni:

Ruboiy (arabcha-to‘rtlik demakdir) sharq she’riyatining eng qadimiy va shuhratli janridir. Turkiy xalqlar she’riyatida uning paydo bo‘lish o‘ziga xos tarixi mavjud.

«Devonu lug‘atit turk»dagi ayrim to‘rtliklar ruboyni eslatadi va uning inkishofi juda qadimlarga borib taqalishini isbotlaydi ham.

Ayrim qarashlarga ko‘ra ruboiy to‘rtlikdan, ba’zi manbalarga qaraganda fors adabiyotida tug‘ilgan, so‘ng arab, urdu va boshqa xalqlar she’riyatiga ko‘chgan deyiladi. Hali bu masala o‘zining tugal echimini topganicha yo‘q.

Ruboiy – o‘ziga xos tarhga ega. Birinchi misra tezis (mavzu), ya’ni boshlanma, ikkinchisi – antitezis, uchinchisi – fikr rivoji – moddai rubooya, to‘rtinchisi – xulosadan iborat bo‘ladi. Ba’zi ruboylarning birinchi va ikkinchi baytda tezis kelishi mumkin. Ba’zilarida tezis va antitezis o‘rnini moddai rubooya olishi mumkin.

U axloqiy, ishqiy, ijtimoiy, falsafiy va siyosiy fikrlarni o‘zida yuksak badiiy yo‘sinda ifodalaydi.

Qilmoq bila parvarish tikon gul bo‘lmas,

Ham tarbiyat ila zog‘ bulbul bo‘lmas,
Gar asl yomong‘a yaxshilik ming qilsang,
Yaxshilik oning niyati bilkul bo‘lmas. (Ogahiy)

